



Botir ABDULLAEV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: 8batir8@mail.ru

TDSHU professori t.f.d M.Is'hoqov taqrizi asosida

SOME CONSIDERATIONS ABOUT THE FORMATION OF ZOROASTRIANISM

Annotation

This article analyzes the material and spiritual cultural monuments that formed the basis of the Mazda Yasna religion, the ancient Turanian and Iranian lands, including archaeological finds associated with the proto-Zoroastrian religion, as well as information about the creation and improvement of the prestigious Mazda Yasna religion. Avesta texts.

Key words: Turan, Iran, Zoroastrianism, Aryanism, Turkism, Avesta, faith, religion, ethnicity, symbiosis, transformation, theory, historical research.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ФОРМИРОВАНИИ ЗОРОАСТРИЗМА

Аннотация

В данной статье анализируются материальные и духовные памятники культуры, составившие основу религии Mazda Ясна, древних туранских и иранских земель, в том числе археологические находки, связанные с протозороастрийской религией, а также сведения о создании и совершенствовании престижной религии Mazda Ясна. Тексты Авесты.

Ключевые слова: Туран, Иран, зороастризм, арийство, тюркизм, Авеста, вера, религия, этнос, симбиоз, трансформация, теория, историческое исследование.

ZARDUSHTIYLIKNING SHAKLLANISHI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mazda Yasna dinining shakllanishiga asos bo'lgan, hamda qadimda Turon va Eron o'lkalari musharakligida yaratgan moddiy-ma'naviy madaniyat yodgorliklari, jumladan? protozardushtiylik diniga oid arxeologik topilmalar va qolaversa mo'tabar Avesta matnlarining yaratilishi va takomillashib borishiga oid ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Turon, Eron, zardushtiylik, ariylik, turkiylik, Avesta, e'tiqod, din, etnos, simbioz, transformatsiya, nazariya, tarixiy tadqiqotlar.

Kirish. Markaziy Osiyo, shubhasiz dunyoning antropogen mintaqalaridan biridir. Bu makonda odamzotning paydo bo'lish tarixi qariyb bir million yillik tarixga ega. Markaziy Osiyoning tabiiy iqlim sharoiti, serxosil maydonlari, kon va ma'danlarga boy yerlari ibtidoiy odamlarni o'ziga jalb etgan. Odamzot o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'ta boshlagan davri sivilizasiyaning boshlang'ich erasini belgilab beruvchi muhim omildir. Ushbu jarayon O'rta Osiyo misolida neolit davrida vujudga kelgan Jaytun, Kaltaminor, Xisor madaniyatlarini misolida aytish mumkin.

O'rta Osiyoning qadimgi axolisi xaqida ko'pgina noaniq, yoki paniranistik g'oyalar bilan kuchli sug'orilgan qarashlar fanda ustunlik qilib kelmoqda. Bu kabi qarashlar tarafdorlari O'rta Osiyoga sivilizasiya miloddan avvalgi 2-ming yilliklarda ariylar bilan kirib kelgan degan fikrda qat'iy turib olganlar. Ular fikriga ko'ra O'rta Osiyo qadimgi sivilizasiyasi ariylarning bu yerlarga qilgan migrasiyasidan boshlanadi. Ular Yevro-Osiyo bo'ylab tarqalib miloddan avval 2-ming yilliklarda eng qadimgi sivilizasiyalarni tashkil qilgan emish. Ariylar xind-ariylarning bir qismi, xind-ariylar esa xind-yevropa tillarida so'zlashuvchi xalqlarining bir bo'lagi. Ariylik nazariyasi esa Yevropadan Hindistonga qadar yerlarda eng qadimgi sivilizasion kamar muhitini aynan ariylar tashkil etgan degan g'oyani ilgari surishga sabab bo'lib kelmoqda. Bir yarim asr davomida turli tarixiy tadqiqotlar asosiga singdirib yuborilgan ushbu qarashlar va shunga xos bo'lgan tafakkur qolipidan qutilish zamonaviy tadqiqotchilar uchun nixoyatda qiyin bo'lmoqda. Umuman olganda bu konseptual qarashning zamirida Yevro-Osiyoning qadimda, hamda hozirda son jihatdan yetakchilik qilgan turkiy xalqlarning insoniyat

sivilizasiyasi tarixidagi ahamiyatini pasaytirib ko'rsatishga qaratilgan. Vaziyat xatto shu darajaga yetdiki, Turonzaminda turkiy etnosni inkor etishgacha olib kelindi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ariylik nazariyasi o'z navbatida paniranistik g'oyalar bilan sug'orilgan tadqiqotlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu metodologik qarashlar asosida konsepsiyalar yaratildi. Bu konseptual qarashlar asosida hozirda ham ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Afsuski bu kabi qarashlar xali xamon tarix soxasida ustunlik qilib kelmoqda.

Ko'rilayotgan masala yuzasidan akademik A.Asqarov shunday degan edi: "Sobiq sho'ro davri tarixiy lingvistika tadqiqotlari va ularning ta'sirida rivojlangan tarix fanida O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari tili masalasida ularni eroniy tilli xalq sifatida talqin qilib kelindi. Chunki, O'rta Osiyo va uning janubida yashovchi qadimgi ajdodlarning muqaddas kitobi Avesto va Rigveda tili Ovropa xalqlarining tillari bilan qarindosh ekanligi haqida fikrlar o'rtaga tashlangach, bu mintaqaning tub aholisini barchasi Avesto va Rigveda yozma manbalari tilidan kelib chiqqan xolda "eroniy" deb qabul qilinib, bu zaminda qadim zamonlardan ular bilan birga qon-qarindosh, qo'ni-qo'shni va quda-anda bo'lib yashab kelgan turkchilikka hech qanday o'rin qoldirilmadi. Xatto eronshunos olimlar hind-ovropa nazariyasidan kelib chiqqan xolda neolit, eneolit va bronza davrida O'rta Osiyodan to Baykalgacha bo'lgan mintaqalarda eroniy til muhiti xukmron edi, degan asossiz qarashni ilmiy jamoatchilik ongiga singdirib bordi" [1].

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Ariylar masalasida xatto zamonaviy tadqiqotchilar ham bir to'xtamga kelmaganlar. Bu

borada ular fikrlari turlicha. Ulardan ba'zilarini keltirishni lozim topdik. Birinchi guruh tadqiqotchilari ariylikni (hind-yevropa xalqlarini) til xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ularni irq vakillari sifatida talqin qilishga moyildirlar [2]. Ya'ni, ariylikni bir etnik qatlam sifatida ko'rishni afzal biladilar. Fikrimizcha ariylik jamoalari polietnik qatlamlardan tashkil topgan. Masalaga bunday yondashish o'z navbatida ilmiy tadqiqotlar negizida yevropasentriзм, paniranizm, irqchilik, agressiv millatchilik, shavinizm kabi g'oyalarni targ'ib etilishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotlarning konseptual, nazariy-metodologik asoslarining "shamoli" qaerga qarab esayotganini barcha tarixchi-mutaxassislar ham ilg'ab ololmasligi achinarli xol. Zamonaviy turkiyzabon dunyosining tarixchi-olimlari tomonidan bu kabi qarashlarni g'ayriilmiy ekanligini ilmiy asoslashga urinishlar bo'layotganligiga qaramay ular xali hamon salmoqli ahamiyat kasb etmoqda. Bunga javoban tadqiqotchi A.M.Ivanov shunday deydi: "Aslida hind-yevropa yoki ariylik irqi mavjud emas, lekin shunga qaramay ba'zi ilmiy saviyasi past asarlarda bu kabi qarashlar uchrab turadi" [3]. Uning ustiga barcha hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi xalqlarni ariylarga yo'yish fanda o'z isbotini topmanan. Olimlar hind-yevropa xalqlarining bir tarmog'i – hind-eron tillarida so'zlashuvchi xalqlariga ariylikka da'vo qilishga haqli deb xisoblaydi [3]. Chunki, to'g'ridan to'g'ri aynan ulargina manbalarda ariylar sifatida tilga olingan.

Ikkinchi guruh olimlar ariylikni eneolit davrida ishlab chiqarishning o'sirishi zamirida yuzaga kelgan chorvador jamoalarining aslzoda mulk egalariining ijtimoiy tabaqasi sifatida talqin qiladilar [4]. Bu ikki bir biriga qarama-qarshi qarashlar asosidagi tortishuvlar xamon davom etmoqda va tugal yechimini topmagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Turkiy xalqlarning ajdodlari Yevro-Osiyoning kengliklarida, shu jumladan O'rta Osiyoda eng qadimgi davrlardan mavjud bo'lib, sivilisasion tarix bosqichida ularni birinchi tarixiy xodisa deyish to'g'ridir. Aniqrog'i turkiy xalqlar Yevro-Osiyo xodisasi desak yanada aniqrog' bo'ladi. Negaki ulardan qolgan arxeologik manbalar shunga guvohlik beradi. Miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida ariylarning sharqqa tomon, jumladan O'rta Osiyoga migrasiyasi tarixan ikkinchi xodisadir. Bu payt O'rta Osiyo xududlari haddan tashqari serxosil, yaylovlari bo'liq, tabiati boy bo'lganligi tufayli chorvador ariylar imkon qadar bu yerda o'rnamshib kolishga xarakat qilgan. O'rnamshib qola olmagan hind-eron qabilalari O'rta Osiyo orqali bir qismi Hindistonga [2], bir qismi qadimgi Elamga kirib bordilar. O'rta Osiyo, Hindiston va Fors o'lkasiga kirib borib, o'rnamshib, bu yerlardagi maxalliy axoli bilan qorisha boshlaganlar. Ushbu bo'limish sodir bo'lgandan bir necha asr o'tib joylarda ariylar tili negizida o'zaro qarindosh, ayni damda bir biridan farq qiluvchi tillar kamari yuzaga keldi Fanda buni hind-eron tillari deb yuritiladi. Eroniy tillari ariylar migrasiyasi tafayli keng xududlarga yoyilgan va ko'plab lahjalarga bo'linib ketdi. Ular asosan "Sharqiy" va "G'arbiy" eroniy tillariga bo'lib o'rganiladi. Sharqiy eron tillari xozirda o'lik tilga aylangan bo'lib, bu tillar asosan O'rta Osiyo xududlarida amalda bo'lgan. Bular: sug'diy, xorazmiy, boqtariy tillaridir. Bu tillar o'rta asrlar davrida turkiy tilning ta'siri ostida muomaladan siqib chiqarilgan, axolisi esa turkiylashib assimilyatsiyaga uchragan. Xozirgi tojik tili masalasiga kelsak, bu til g'arbiy eroniy tillar tarmog'iga taalluqli bo'lib, VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asr boshlarida Eron va Xuroson hududlaridan arablarning O'rta Osiyoni fatx qilish davrida bu yerga fors o'lkasidan kirib kelgan. Chunki, tarixan Eron arablar tomonidan O'rta Osiyoga nisbatan avvalroq bosib olinib islomlashtirildi. Eron zardushtiyarlari islom dinini qabul qilib musulmon bo'ldilar. Qo'shni O'rta Osiyo zardushtiyarlari islomni qabul qilib

musulmon bo'lgan sobiq Eron zardushtiyarlari yordamida islomlashtirish jarayoni amalga oshirildi. Bunda arablar fors-dariy qabilalaridan foydalandilar. Shu yo'l bilan fors-dariy (g'arbiy-eroniy) til O'rta Osiyoga kirib keldi va tojik tilining shakllanishiga asos bo'ldi. Ayni damda sharqiy-eroniy tillar (sug'diy, xorazmiy boqtariy) turkiy tilning ta'sirida siqib chiqarilayotgan edi. Turkiy tilning dariy-forsiy til bilan qorishuvi natijasida tojik tili yuzaga keldi.

Paniranizistik qarashlar tarafdorlari ariylar migrasiyasiga qadar O'rta Osiyo yerlari deyarli bo'sh, axolisi siyrak yashagan deyishga moyildirlar [5:16]. Zardushtiylikning proto ko'rinishlari ham ariylar migrasiyasi bilan birga O'rta Osiyo xududlariga kirib kelgan degan fikr fanda mutlaq ustunlik qilib kelmoqda[5]. Xolbuki, O'rta Osiyo turkiy dunyosi miloddan avvalgi 2-ming yillikda kirib kelgan ariylarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilgan va son jihatdan ustun bo'lgan [2]. Shuning uchun ariylar Hindiston va Fors o'lkasi tomon siljishni davom ettirgan. Ilmiy adabiyotlarda bu xolat tamomila boshqacha tus berib ko'rsatiladi. Turonzaminning qadimgi turkiy etnoslarning sivilizasiyaviy ahamiyati go'yoki atayin pasaytirib ko'rsatilayotgandek ko'rinadi.

Shubhasiz, Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelgan ariylar dunyosi zardushtiylik dinining vujudga kelishida muhim rol o'ynagan. Lekin, bu jarayonni O'rta Osiyoning prototurkiy dunyosining ishtirokisiz amalga oshgan jarayon sifatida qarash, yoki turkiy dunyo kirib kelgan ariylarning diniy mifologiyasini to'liqligicha o'zlashtirganlar deb xisoblash fikrimizcha unchalik to'g'ri emas [2]. Chunki, zardushtiylik diniga xos proto elementlarning shakllanishi ariylarning bu zamanga qadamlari yetmasidan ming yillar avval ro'y bergan (miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar). XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida lingvistik tadqiqotlar natijasida ilk bora yevropa tillarini sanskrit tiliga qarindosh ekanligi aniqlangan. Shundan etiboran hind-yevropa tillari degan tushuncha fanga kirib kelgan. Hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi xalqlarning protovatani O'rta Osiyo hududlariga to'g'ri keladi degan xulosalar ham berilgan [3, 7, 8]. Xozirgi kunda qadimgi Sharq xalqlari tarixi va avestoshunoslik fanlarida "qanday qilib O'rta Osiyo xalqlari ilk jahon diniga asos solgan", degan masala muxokama maydoniga aylangan. Bu borada tadqiqotchi Sh.Shaydullaev "Zardushtiylik diniga Turon xalqlari asos solganlari allaqachon isbotlangan va bu masala avestoshunos olimlar tomonidan muxokama qilinmay qo'yilgan" deb yozadi [8, 9].

Zardushtiylik dini asoslarining shakllanishida har ikkala etnik qatlamning ishtiroki mavjud deb qarash masala mohiyatini ancha oydinlashtiradi, va yangi ilmiy xulosalar qilishga yo'l beradi. Shuningdek, ariylar kirib borgan joylarda ularning e'tiqod ob'ektlari, xudolari mahalliy e'tiqod ob'ektlari ham e'zozlangan hamda vaqt o'tishi bilan ular bir birini to'ldiruvchi xususiyat kasb etib transformasiyalashib borganligi haqiqatga yaqin deyish mumkin [2]. Binobarin, zardushtiylik dini muqaddas kitobi Avesta o'zbek, tojik, afg'on, fors, ozarbayjon va boshqa xalqlarning diniy-ahloqiy qarashlarini o'rganishda muhim manbadir. Aslini olganda Avesta asos e'tibori bilan zardushtiylik dinini emas, Mazda Yasnachilarning e'tiqodini o'zida mujassam etgan (ushbu masalani biz alohida mavzu sifatida boshqa maqolada kengroq taxlil qilamiz).

Bronza davrida O'rta Sharq mintaqasiga ariylarning kirib kelishi bu yerda sharqiy-eroniy tillarning shakllanishiga asos bo'ldi. Miloddan avvalgi VI asrda O'rta Osiyo eron Ahamoniylari tomonidan bo'ysundirildi. Bu davrda ma'muriy boshqaruv tizimi bilan birgalikda fors-dariy tilining ta'siri oshishiga sabab bo'ldi. Milladdan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy mintaqalarida Parfiya, milodiy III asrda Sosoniylar davlatining vujudga kelishi eron

tillarining ta'sirini kuchaytirdi. Bu payt mintaqada o'rta fors tilining ta'siri sezilarli darajada oshdi. VIII asrda arablarning O'rta Osiyo hududlarida islom dinini yoyish maqsadida musulmon bo'lib ulgargan fors-dariy qabilalaridan foydalandilar. Shu tariqa dariy tilining ta'siri sezilarli darajada ortdi va tojik tilining shakllanishiga sabab bo'ldi. X-XI asrlarga kelib Qoraxoniylar davrida turkiy til davlat tili maqomi darajasiga chiqishi turkiy tilning ta'sir doirasini bir necha bor kengaytirgan bo'lsada, bu davrga kelib ming yillar mobaynida an'anaga aylanib, amalda qo'llanib kelinayotgan eroniy (fors) tillarni amalda siqib chiqara olmadi. Ko'p xollarda fors tili ijod va davlat ishlarini yurgizish (devonxona) rasmiy tiliga aylandi. Etnik jihatdan O'rta Osiyoning turkiy axolisi o'zining ona tilidan tashqari fors tilini ham mukammal bilgan. Temur va temuriylar davri, undan keyingi xonliklar davrida ham bu an'ana saqlanib qoldi. Bu an'ananing tarixiy zanjiri sovet tuzumining o'rnatilishi bilan uzildi. Birinchidan, sovetlar 1925 yilda Turkiston o'lkasida milliy respublikalar tashkil etib, milliy tilning siyosiy mavqecini o'rta taga tashladi. Bunda ular albatta "bo'lib tashla – hukmronlik qil" qabilada o'z manfaatlarini yuzasidan ish tutdilar. Ikkinchidan, milliy respublikalarga rus tilini asosiy til sifatida bog'lab berildi. Barcha sovet respublikalarida rus tili majburiy tilga aylandi. Bundan xulosa shuki, til etnik mansublikni aniqlash uchun to'liq asos bo'la olmaydi. Buning ustiga, bronza davrida migrasion jarayonlarda ishtirok etgan ariylarning monoetnik mansubligi masalasi tarixan isbotini topmagan. Ariylikni oliy irqchilik darajasiga olib chiqishni maqsad qilgan nazariya tarafdorlari millatlararo ziddiyatdan bo'lak xech narsaga erisha olmaganliklarini anglab yetishlari kerak. Shu boisdan qadimda moddiy madaniyati bilan tarixda iz qoldirgan O'rta Sharq turkiy dunyosining sivilizatsion tarix saxnasidan chetlashtirishga urinish izz isbotini topmadi.

Hozirgi O'zbekiston hududlarida tarixan tarkib topgan va qadimgi yozma manbalarda tilga olingan Sug'd, Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Choch, Parg'ana, Ustrushona kabi iqtisodiy-xo'jalik, siyosiy va modaniy sivilizatsiya o'choqlari joylashgan edi [13].

Ularning tarixan shakllanishi va rivojlanishi qadimgi Turonning ikki azim daryolari – Amudaryo va Sirdaryo va ular irmoqlarining suv zaxiralari bilan bog'liq. Bu daryolar havzalarida qadimdan tarkib topgan manzilgohlar, qishloqlar va qadimgi shaharlar qad ko'targan.

Qadimdan Turonzaminning turkiy xalqlari iqtisodiy-ho'jalik hayotini tashkil etgan sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, ko'p tarmoqli xunarmandchilik, ichki va tashqi savdo-sotiq asosida yuksak darajada tarkib topgan shaharsozlik madaniyati va o'zbek davlatchiligi ikki yo'nalishda rivojlangan. Ularning birinchisi Amudaryo havzalarida tarkib topgan bo'lsa, ikkinchisi Sirdaryo havzalarida shakllangan.

Arxeologik va qadimgi yozma manbalar talqini va ilmiy tahliliga ko'ra eng qadimgi zamonlardan Amudaryo havzalarida Baqtriya-Toxariston, Marg'iyona, Parfiyona, Sug'd va Qadimgi Xorazm hududlari joylashgan bo'lib, bu hududlarning moddiy madaniyati Qadimgi Sharq

sivilizatsiyasi an'analari asosida rivojlangan. Ularda Avestada tilga olingan sug'diy, boqtariy, marg'iyoniy, parfiyoniy, xorazmiy va sak etnik birliklarining tili asosida qadimgi eroniy til muhiti tashkil topgan.

Sirdaryo havzalari hududlarida esa Choch, Parg'ana, Ustrushona kabi tarixiy-madaniy o'lkalar joylashgan bo'lib, bu tarixiy-madaniy o'lkalar Qadimgi Sharq tarixiy-madaniy o'lkalarining ta'sirisiz mahalliy aholi madaniy ho'jalik an'analari asosida rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Sirdaryo havzalari mintaqalarining etnomadaniy va etnosiyosiy hayotida azaldan o'troq turkiylikka xos etnik an'analar va xayot tarzi ustuvor bo'lib kelgan. Chunki Sirdaryo havzalari juda qadim-qadim zamonlardan ikki ho'jalik (dehqonchilik va chorvachilik) jamoalarining, ikki til sohiblarining (qadimgi eroniy va prototurkiy tilli) qabilalarining chegara hududlari, to'qnashuv makoni, ikki tillik etnik guruhlarining aloqa maydoni bo'lib kelgan. Buni ba'zi tadqiqotchilar simbioz hudud deb nomlashga moyildirlar. Ilk o'rta asrlardan boshlab bu o'zaro aloqa maydoni Sirdaryodan Amudaryoning yuqori va o'rta havzalariga ko'chib, bu ikki daryo oralig'ida hamda ularga tutash hududiy zonada asta sekin turkiylik muhiti shakllana boshlagan.

Arxeologik manbalar qadimda Turon va Eron o'lkalari musharaklikda yaratgan moddiy madaniyat yodgorliklarining arxeologik materiallari taxliliga ko'ra, bu etno-madaniy musharaklik, o'zaro uzviylik qadimgi tarixiy ildizlarga ega ekanligini isbotlaydi [13; 10; 11].

O'rta Sharq mintaqasida bronza davriga qadar bu makonning tub yerli aholisi qadimgi eroniy tillar oilasining shimoliy-sharqiy lahjalari: sug'diy, xorazmiy, boqtariy, marg'iyoniy, parfiyoniy, sak qabila va qavmlari tillari amalda keng qo'llanilgan. Bronza davridan e'tiboran ushbu zaminga Sirdaryoning shimoliy-sharqiy tomonlaridan: Yettisuv o'lkalari, Qozog'iston dastlari, Janubiy Sibir, Yenisey havzalari, Ural tog' tizmalarining janubiy-sharqiy yonbag'irlari, Janubiy-g'arbiy Tyanshan, Tog'li Oltoy, Xakasiya va Tuva o'lkalaridan prototurkiy va turkiy etnik guruhlarining birin-ketin to'xtovsiz kirib kelishi boshlandi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida tilga olganimizdek, ostadonlarda dafn qilish marosimi shubhasiz zardushtiylikka xosdir. Lekin hamma yerda ham bu odat bo'lmagan deyishimizga asos ko'p. Ostadonlarda dafn qilish marosimi ko'proq O'rta Sharq mintaqasiga xos bo'lib, ular aynan shu yerdan arxeologlar tomonidan ko'plab topib o'rganilgan. Ostadonlarda dafn qilish amaliyoti Eronda deyarli sezilmaydi. Bu kabi diniy tushunchalar aynan turkiy xalqlarni zardushtiylik dinini qabul qilishi bilan bog'liq deb xisoblash masala atrofida paydo bo'lgan savollar o'z javobini topganday bo'ladi. Hind-ariy xalqlarining diniy mifologik ma'naviy merosini ular bilan birga yonma yon yashagan turkiy xalqlar Zardusht ta'limotini qabul qilish bilan barobar bu dinni ravnaq topib shakllanishi va rivojlanishida o'z xissalarini qo'shganliklari O'rta Sharq mintaqasida yashayotgan hozirgi xalqlarning xayot tarziga singib ketgan minglab noislomiy marosimlarda ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент. “O'zbekiston” нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2015.
2. Чайлд Г. Арийцы. Основатели Европейской цивилизации. М.: Центрполиграф. 2007. – 270 с.
3. Иванов А.М. Заратустра говорил не так. <https://www.rulit.me/books/zaratustra-govoril-ne-tak-read-288140-1.html> электрон китоб.
4. Аскарлов А. Арийская проблема: новые подходы и взгляды. <https://centrasia.org/news/A.php?st=1138060920>;
5. Сарияниди В.И. Задолго до Заратустры.(Археологические доказательства прото зороастризма в Бактрии и Маргиане). Под общей редакцией Н.А.Дубовой. Москва. Старый сад. 2010.
6. Кузьмина Е.Е.Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен андроновской обьности и происхождение индоиранцев. Москва. Восточная литература., 1994. 461 с;
7. Кузьмина Е.Е. Арии – путь на юг. М.: Летний сад. 2008. – 558 с.

8. Шайдуллаев Ш. Илк динлар тарихини ўрганишда услубий англашмовчилик (археология манбалари ва янгича ёндашув) // Ўзбекистон тарихи. 2020. № 3. – Б. 50.
9. Абаев В.И. Два зороастризма в Иране. (Иран Восточный – Иран западный. Два лица одной этнической культуры). // ВДИ/ 1990. № 4. – С. 198-207.
10. Аркаим – Синташта: древнее наследие Южного Урала. К 70-летию Геннадия Борисовичи Здановича. Сборник научнкх трудов. Часть 2. Челябинск 2010. – 184 с;
11. Геннинг В.Ф., Зданович Г.Б., Геннинг В.В. Синташта. Челябинск 1992. – 408 с.
12. Масов Р. Тюркизация арийцев: чужь или недомыслие? Ответ на статью А.Аскарова "Арийская проблема: новые подходы и взгляды". <https://centrasia.org/newsA.php?st=1136562180>
13. Аскарлов А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. Тошкент. Фан. 2023. – Б. 7.



UDK:950(575.1)

Xalil MATYAQUBOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi
E-mail: matyakubovxalil@gmail.com.

TDPU professori, akademik A. Asqarov taqrizi asosida

SOME QUESTIONS OF ANCIENT KHOREZMIAN LANGUAGE AND WRITING

Annotation

This article discusses the origin, development and stages of the ancient Khorezmian language and writing. The relationship between Eastern languages and scripts based on written and archaeological sources is examined. The transformation processes of the ancient Khorezmian language and writing are analyzed from a historical perspective.

Key words: hieroglyph, cuneiform writing, Aramaic language, Avestan language, Avestan writing, Khorezmian language, Khorezmian writing, "Tuprakkala archive", Arab invasion.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ДРЕВНЕХОРЕЗМИЙСКОГО ЯЗЫКА И ПИСЬМЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье на основе археологических и письменных источников освещены возникновение древнехорезмийского языка и письменности, этапы развития, его взаимосвязь с древневосточными языками и письменностью, а также его собственные черты. В историческом контексте анализируются трансформационные процессы древнего хорезмийского языка и письменности.

Ключевые слова: иероглиф, клинопись, арамейский письмо, Авестийский язык, Авестийский письмо, Хорезмийский язык, Хорезмийский письмо, "Тупраккалинский архив", нашествие арабов.

QADIMGI XORAZM TILI VA YOZUVINING AYRIM MASALALARI

Аннотация

Ushbu maqolada qadimgi Xorazm tili va yozuvining paydo bo'lishi, taraqqiyot bosqichlari, uning qadimgi Sharq tillari va yozuvlari bilan o'zaro aloqadorligi hamda o'ziga xos jihatlari arxeologik va yozma manbalar asosida yoritiladi. Qadimgi Xorazm tili va yozuvining transformatsion jarayonlari tarixiy kontekstda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: iyeroglif, mixxat yozuvlari, oromiy yozuvi, Avesto tili, Avesto yozuvi, Xorazm tili, Xorazm yozuvi, "Tuproqqal'a arxivi", arablar istilosi.

Kirish. Qadimgi Xorazm boy tarixiy o'tmishga ega hududlardan biri bo'lib u qadimgi Sharq sivilizatsiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Albatta tarixiy Xorazm bugungi Xorazm vohasidan ancha katta hududni o'z ichiga olib, geografik jihatdan butun quyi Amudaryo havzasini qamrab olgan. Moddiy manbalarning qadimgi yozma manbalar bilan qiyosiy tahlili, bu zaminda davlatchilikning muhim belgisi bo'lgan sug'orma dehqonchilik va ilk shaharsozlik madaniyati ushbu mintaqada kechgan murakkab etnik va madaniy aloqalar zamirida tarkib topganligini ko'rsatadi. Ushbu jihat qadimgi Xorazm tili va yozuvining shakllanishiga ham bevosita aloqadordir. Xorazm yozuvining genezisi qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlariga borib taqalsada, uning keyingi rivoji mahalliy an'analarda davom etgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorazmda yozuv madaniyati tarixi XX asrning 30-yillarigacha asosan o'rta asr yozma manbalari asosida o'rganilgan. Qadimgi xorazmlikkarning tili va yozuvi haqida dastlab mashhur qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ma'lumot keltiradi [1]. Sharq tillari mutaxassisi bo'lgan V.V. Bartold asarlarida asosan xorazmning tarixiy geografyasi va etnik-siyosiy tarixiga oid ma'lumotlarni topish mumkin [2]. 1937-yildan o'z faoliyatini boshlagan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasida qo'lga kiritilgan boy arxeologik materiallar Xorazm tarixini moddiy-ashyoviy manbalar asosida ilmiy jihatdan o'rganish uchun asos bo'ldi.

Xorazm tili va yozuvi haqidagi dastlabki ilmiy ishlar mashhur sharqshunos olim S.P. Tolstov tomonidan e'lon

qilindi [3]. S.P. Tolstov boshlab bergan ushbu tadqiqot mavzusi uning hamkasblari va shogirdlari tomonidan davom ettirildi [4]. Bu borada ayniqsa qadimgi sug'd tili va yozuvi bilimdoni V.A. Livshitsning ishlarini alohida ta'kidlash o'rinli. V.A. Livshits antik davr Xorazmning Oybuyirqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, To'qqal'a va mustaqillik yillarida ochib o'rganilgan Oqchaxonqal'a (Qozoqliyotgan) yodgorliklaridan topilgan yozuv namunalari qiyosiy ilmiy tahlilini fanga olib kirdi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, janubiy Orolboyi mintaqasining rivojlangan o'rta asrlar davrigacha bo'lgan tarixini faqat kompleks arxeologik tadqiqotlar asosidagina o'rganish mumkin. Ushbu hududda o'tgan asrning 30-yillariga qadar deyarli hech qanday ilmiy dala-tadqiqot ishlari olib borilmagan. XX asrning 30-40-yillaridan to bugungi kunga qadar mavzuga oid juda ko'p materiallar to'plandiki, anashu dala tadqiqotlari va arxeologik ekspeditsiyalarda olingan birlamchi manbalarni tahlil qilishda tarixiylik, ilmiy xolislik va obyektivlik tamoyillariga amal qilish lozim bo'ladi. Muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy-falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, tizimlashtirish, mavhumlikdan murakkablikka tomon borish, qiyosiy solishtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu usullar tadqiqotimizning ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Yer yuzida odamzod paydo bo'lganiga million yildan ko'proq davr o'tgan bo'lsa, ana shu davr tarixining so'nggi bosqichida, ya'ni bundan taxminan 6-5 ming yilcha avval qadimgi Misr, Mesopotamiya, Shimoliy-g'arbiy Hindiston, Xitoy hududlarida yozuv va yozuv

madaniyati paydo bo'ldi. Yozuv madaniyatining paydo bo'lishi esa ibtidoiy jamiyatlarda o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllariga o'tilishi, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq munosabatlarining vujudga kelishi xosilasi edi.

Insoniyat tamadduni bugungi harfli yozuv shakliga o'tguncha uzoq tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Miloddan avvalgi III – ming yillikda paydo bo'lgan Misr iyerogliflari va Mesopotamiya mixxat yozuvlari hali harfsiz yuzlab shakllardan iborat bo'lib, ularni o'zlashtirish va amaliyotda foydalanish jamiyat taraqqiy etgan sari juda ko'p qiyinchiliklar tug'dira borgan. Oradan bir necha asr o'tgach tarixiy zarurat taqozosi bilan jahon tarixda birinchi bo'lib Old Osiyo xalqlari o'zlarining xarfli alifbo tizimini yaratadilar. Miloddan avvalgi XV-XII asrlarda O'rta yer dengizining sharqida joylashgan Ugarit shahri podsholigida 30 harfdan iborat o'ziga xos mixxat yozuvining alfavit sistemasi vujudga keldi [6]. Shu bilan bir qatorda o'sha davrda Finikiyada ancha takomillashgan alfavitli yozuv sistemasi ham yaratiladi. Ingliz arxeologi Flinders Petri 1905-yili Sinay tog'ida joylashgan mis konidan miloddan avvalgi XV asrga oid toshga o'yib yozilgan yozuv namunalarini topadi. Unda hammasi bo'lib 30 ta harf aniqlangan. Olimlarning ta'kidlashlaricha harfli yozuvlarning vatani aynan Finikiya bo'lgan [7].

Keyinchalik fanda bu yozuv Oromiy yozuvi nomini oldi. Ma'lumki, miloddan avvalgi II ming yillik oxirida Suriya, Finikiya va boshqa sharqiy O'rta yer dengizi mamlakatlariga Arabistondan semitzabon oromiy qabilalarining kirib kelishi kuzatiladi. Ularning tili Suriya va shimoliy Mesopotamiya xalqlari o'rtasida keng tarqalib, asosiy tillardan biriga aylangan va oromiy tili va yozuvi nomi bilan mashhur bo'lgan. Oromiy yozuvi o'z navbatida keyinchalik O'rta Osiyo xalqlarining yozuv madaniyati taraqqiyotiga ham o'zining katta ta'sirini ko'rsatgan.

Oromiy yozuvining muhim hususiyatlaridan biri uning o'ngdan chapga qarab yozilishi edi. Buning genezisi esa undan oldin yaratilgan Misr iyerogliflari va Mesopotamiya mixxat yozuvlariga borib taqaladi. Gap shundaki, mixxat yozuvlari toshga, qoyalarga, saroy va ibodatxonalarining devorlariga o'yib yozilgan. Xattotning o'ng qo'lida bolgacha, chap qo'lida esa uchi o'tkir qoziqcha (mix) bo'lgan. Aynan shu xolatda tekis yuzga o'yib yozilayotgan harflarni xattot ko'rib turish mumkin bo'lgan. Natijada matn o'ng tomondan chap tomonga qarab bitilgan. Ushbu an'ana mixxat yozuvidan oromiy yozuviga, undan esa keyingi davrlarda sharq xalqlari tomonidan yaratilgan alifbolarga o'tgan. Bugungi arab alifbosining ham o'ngdan chapga qarab yozilishi sababi ham ana shu oromiy alifbosi an'analariga borib taqaladi.

Qadimgi Sharq yozma va arxeologik manbalardan ma'lumki, miloddan avvalgi II-ming yillik o'rtalari va oxirlari Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron tarixi hind-eron qabilalarining yoyilishi bilan bog'liq kechdi. Aynan shu davrda yuqorida ko'rsatilgan hududlarda yashagan aholining so'zlashuv tili qanday bo'lganligi haqidagi masala hanuzgacha munozarali. Ushbu masalada tilshunos olimlar tomonidan yakdil fikrga kelinmagan. Chunki, o'sha davr xalqlarining tili haqidagi ma'lumotlarni o'zida saqlovchi moddiy-ashyoviy dalillar saqlanib qolmagan. Sug'dshunos olim Freymanning fikricha, O'rta Osiyo xalqlari miloddan avvalgi II ming yillikdayoq Eronchadan kam farq qiluvchi tilda gaplasha boshlaganlar [8].

Bronza davrining mutaxassisi, akademik A.Asqarovning fikricha: "Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi davomida oriylarning qaysi bir bo'lagi Eron, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston hududlariga kirib borganlar. Buni qadimgi yozma manbalar – Rigveda va Avesto ham tasdiqlaydi. Ammo, oriylar mahalliy aholiga nisbatan bir necha bor ozchilikni tashkil etganliklari bois, na

shimoliy Hindiston, na Sharqiy Xuroson va umuman Eronning mahalliy aholisi tilini o'zgartirib yubora olmagan. Aksincha, mahalliy eroniy tillar ta'sirida eroniylashdi. Ular jangovor suvoriy turkiy aslzodalar sifatida mahalliy eroniy jamoalar ustidan siyosiy hukmronlikni o'rnatishda, ustuvor eroniy tillar muhiti ta'sirida, asrlar davomida yuz bergan yaqin etnomadaniy aloqalar va etnik qorishuvlar tufayli eroniy etnik qatlama aylanib ketadilar. Ana shu eroniy etnik til muhitida Veda va Avesto manbalari vujudga keladi. ... Eronda eroniy til, yevrotsentristlar aytganidek, tashqaridan kirib kelmadi, aksincha o'zga yurtlarning istilochilarini tili mahalliy aholi tili tomonidan yutib yuborildi, assimilyatsiya qilindi" [9]. Olimning ta'kidlashicha, Ahamoniylar podsholigi davrida O'rta Osiyo mahalliy aholisining tili yozma manbalarning tahliliga ko'ra, hamon shimoliy-sharqiy eroniy tilda (sug'diy, xorazmiy, bohtariy, sak) edi. Bu holat antik (mil. av. IV-milodiy IV asrlar) va ilk o'rta asrlarda ham (milodiy V-VII asrlar) davom etadi.

Xorazm tili va yozuviga to'xtaladigan bo'lsak, shuni ta'kidlash joizki Xorazm qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shimol tomonga, dastlab skiflar, so'ngra turklarning dasht qabilalari olamiga qarab juda ichkari kirib borgan tayanch nuqtasi edi. O'rta Osiyodagi sivilizatsiya o'choqlarining tarixini ko'chmanchi qabilalar tarixidan ajralgan holda tasavvur qilish qiyin. Bu gap ayniqsa qadimgi Xorazm hududiga ko'proq dahldordir [10].

Shundan kelib chiqqan holda olimlar Xorazm tilini osetin va sug'd tillari bilan birgalikda hind-yevropa tillarining qadimgi massaget va skif (sak) tillari chatishishi natijasida vujudga kelgan "Shimoliy Eron" deb ataluvchi sak-sarmat guruhiga kiritishadi. V.A. Livshits Qadimgi xorazm tilini sug'd va shimoliy-sharqiy Eron tillari oralig'idagi o'ziga xos til bo'lib, uning parfiya, osetin va Avesto tillari bilan o'zaro umumiyliyi bor deb hisoblagan [11].

Xorazm hududlari (quyi Amudaryo havzasi)da olib borilgan arxeologik qazishmalar davomida ko'plab moddiy madaniyat yodgorliklari topilgan bo'lsada, biroq, Xorazm tili va yozuvini o'zida aks ettiruvchi topilmalar miloddan avvalgi I-ming yillikning o'rtalarigacha bo'lgan madaniy qatlamlarda hanuzgacha qayd qilinmagan. Ma'lumki, davlatchilik va boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yozuv madaniyatidagi tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo, miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi choragida qadimgi Xorazmda davlatchilik tarkib topganligini ko'rsatuvchi belgilar mavjud. Arxeologik tadqiqotlar davomida Amudaryoning quyi irmoqlaridan sun'iy sug'orish tizimlari (kanal-ariqlar) va mahobatli yer usti qurilishlari (paxsadan qurilgan mudofaa devorlari) izlarining qayd etilganligi shunday xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bugungi kunda mutaxassislar tomonidan Ahamoniylar davrigacha Xorazmda davlatchilik bo'lganligi rad etilmasada, uning yashagan davri juda qisqa bo'lganligi aniq. Chunki qadimgi fors yozma manbalarida (Behustun qoyasi, Persepol saroyidagi bitiklar) Xorazm miloddan avvalgi VI asrning o'rtalari va ikkinchi yarmidan boshlab Ahamoniylar saltanati tasarrufidagi o'lkalardan biri sifatida eslariladi.

Markaziy Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kiritilishi bir tomondan erkinlik va mustaqillikning yo'qotilishiga olib kelgan bo'lsada ikkinchi tomondan qadimgi Xorazm ham Sharq tamadduni yoyilgan mintaqalar bilan yanada yaqin madaniy aloqalar tizimiga kirdi. Quyi Amudaryo havzalarida sug'orma dehqonchilik madaniyati jadallashib, hududda shaharsozlik madaniyati o'z rivojining yangi bosqichiga ko'tarildi.

G'arbiy Osiyo mintaqasida keng yoyilgan oromiy alifbosi qadimgi fors yozuviga nisbatan o'zlashtirilishi ancha oson bo'lganligidan Ahamoniylar saltanatining ma'muriy boshqaruv ishlarida keng qo'llanila boshlanadi. Keyinchalik O'rta Osiyoning turli rayonlarida oromiy yozuviga asoslangan

mintaqaviy yozuvlar xorazmiy, boxtariy va sug'd yozuvlari paydo bo'ldi. Ushbu yozuvlar asosida keyinroq Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasida uyg'ur, mo'g'ul va manjur alifbolari tarkib topdi.

Xorazm alifbosiga to'xtaladigan bo'lsak, xorazm yozuvi shajarasi Avestoshunos olim M. Isxoqov iborasi bilan aytganda Ahamoniylar davridagi klassik oromiy yozuviga borib taqaluvchi alohida mustaqil tarmoqni tashkil etadi. Tilshunos olimlarning qayd qilishlaricha Xorazm alifbosida oromiycha an'analar yuqorida sanab o'tilgan alifbolarning hammasidan ko'ra ko'proq saqlanib qolgan. Xorazm yozuvi uzoq yillar mobaynida kam o'zgarishlarga uchragan [12].

Bugungi kunga qadar arxeologlar tomonidan aniqlangan O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi bu xurning sirtiga tushirilgan Xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. Bu yozuv namunasi Katta Oybuyirqal'a shahar xarobasidan topilgan bo'lib, u miloddan avvalgi V-IV asrlarga tegishlidir.

O'tgan asrning 50-yillarida miloddan avvalgi IV – milodiy I asrlarga taalluqli Qo'yqirilganqal'a yodgorligidan xum sirtiga bitilgan yozuv namunasi topildi. U oromiycha osonlikcha o'qiladigan xarf bilan o'yib yozilgan edi. Yozuv Spbr| DK –“Aspabarak” yoki “Aspabadak” deb o'qiladi. Shubhasiz bu so'z eronchadir. So'zning ot o'zagi ham, fe'l o'zagi ham, uning oxiridagi affiks ham eronchadir. So'zni “otda ketayotgan” yoki “ot minib turgan” (chavandoz) deb tarjima qilish mumkin. Umuman Qo'yqirilganqal'a yozuvlarining xronologik chegarasi miloddan avvalgi III asrga, eng so'nggilari miloddan avvalgi II asrning boshlariga to'g'ri keladi [13].

Qadimgi xorazm yozuvi yodgorliklari bizning davrimizga qadar numizmatik materiallarda, qadimgi xo'jalik buyumlarida (kumush piyola va kosalarda) saqlanib kelgan. Shuningdek arxeologik izlanishlar jarayonida Tuproqqal'a, To'qqal'a va Mizdahkon shahar-qal'alaridan ham juda ko'plab yozuv namunalari arxivi topilganki, qo'lga kiritilgan boy yozuv yodgorliklari qadimgi Xorazmning arab istilosiga qadar bo'lgan siyosiy, moddiy va ma'naviy hamda xo'jalik munosabatlari tarixini yanada teranroq idrok etishga yordam beradi.

Xorazm yozuvining nodir namunalari milodimizning III-IV asrlari chegarasiga tegishli Tuproqqal'a yodgorligidan topilgan “Tuproqqal'a arxividir”. Bu yozuv namunalari asosan teri, yupqa taxtachalar va tayoqchalarga yozilgan. Topilgan yuzlab xujjatlardan yog'och taxtachalarga yozilgan bitiklarning 18 tasi yaxshi saqlangan. Teriga bitilgan yozuvlar ko'pchilikni tashkil qilsada, ularning aksariyati yaxshi saqlanmaganligi bois 8 ta namunasinigina batafsil o'qishga, umuman Tuproqqal'a saroyidan topilgan 26 ta xujjatni qiyosiy o'qib tahlil qilishga muvaffaq bo'lindi. Yozuvlarning hammasi qora siyoh bilan yozilgan. Tuproqqal'a xujjatlaridagi yozuvlar orqali Xorazm alifbosida oromiy yozuvida ham mavjud bo'lgan 19 ta harf aniqlangan. Oromiydagi 3 ta harfning uchratilmaganligini (bular t, s, q harflari) xorazm tili va yozuvi bu davrga kelib ma'lum fonetik va grammatik o'zgarishlarga uchraganligi bilan izohlash mumkin.

Tuproqqal'a xujjatlaridagi yozuvlar Xorazm kursiv xati taraqqiyotining boshlang'ich bosqichini tashkil etib, uning keyingi rivoji Yakka Porson va To'qqal'a ostadonlaridagi yozuvlarda namoyon bo'ladi. To'qqal'a miloddan avvalgi I, milodiy XI asrlarga taalluqli yodgorlik bo'lib, 1962-1964-yillarda bu yerda olib borilgan qazishmalar jarayonida xorazmcha yozuvlar bitilgan 54 ta sopol ostadonlar topildi. Shulardan 49 tasi yaxshi saqlangan bo'lib, ularning dastlabki

o'qilishini va sharhlari V.A. Livshits va A.V. Gudkovalar tomonidan e'lon qilindi [14].

Sopol ostadonlar qapqog'iga bitilgan ba'zi yozuvlar uzundan uzoq bo'lsa, ba'zilari qisqa, bir yoki ikkita so'zdan iborat bo'lib ularda asosan marhumning ismi va ajdodi yoki uning sharafiga bitilgan diniy mazmundagi nasihatomuz so'zlardir. Yozuvlarga qarab To'qqal'a yozuv uslubining Tuproqqal'a yozuvidan birmuncha taraqqiy etganini kuzatish mumkin.

Milodiy VIII asr boshlariga qadar Xorazmda zardushtiylik diniy mafkurasi asosidagi mahalliy davlatchilik an'anasi hukmron edi. Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Kat shahri Afrig'iyalar sulolasining poytaxti sifatida sharqning yirik savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri edi. 709-yilda Qutayba ibn Muslim boshliq arab lashkarlarining Xorazmga harbiy yurishlari natijasida bu yerda ham arab xalifaligining hukmronligi o'rnatildi. Arablar bosqini nafaqat Xorazm davlatchiligining tugatilishi, balki ushbu hududning bir necha asrlik noyob moddiy va madaniy merosining vayron etilishi bilan yakunlandi.

Arab istilochilari tomonidan qadimgi xorazm yozma yodgorliklari noyob namunalarining yo'q qilib tashlanishi oqibatida X-XI asrlarga kelib Xorazmda arab-fors alifbosi asosida xorazm tilining fonetik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi yozuv yaratiladi.

Arablarning Movarounnaxr va Xurosondagi hukmronligi uzoq cho'zilmaydi. IX asrning birinchi choragidan boshlab bu yerda kelib chiqishi turkiy xalqlarga dahldor mahalliy sulola vakillari siyosiy hokimiyatni qo'lga oladilar (O'g'izlar davlati, Qarluqlar davlati, Somoniylar, G'aznaviylar va Qoraxoniylar davlati). Umuman IX-XI asrlarda Turon zaminida turkiy tilli qabila-elatlar hukmron mavqega ega bo'la borib, bu zamindagi an'anaviy, qadimgi mahalliy tili va yozuvlarni siqib chiqara boshlaydi. Qadimgi xorazm tili va yozuvi ham anashu jarayonlar ta'siriga tortila boshlanadi. Ammo arab grafikasida bo'lsada Xorazm tilidan XI asr boshlarida Xorazmshohlar saroy yozishmalarida keng foydalanilgan. Tarixiy Bayxakiyda keltirilishicha, 1017-yilda Xorazmni bosib olgan Mahmud G'aznaviy Xorazmshohlar saroyi xujjatlarini tintuv qilayotganida arabcha imlodagi notanish tildagi maktubni topadi. Aniqlanishicha, maktub Yaqub Jandiy tomonidan xorazmshohga yozilgan bo'lib, unda bosqinchi Mahmud G'aznaviy nomiga ko'p haqoratomuz so'zlar bitilgan edi. Xat mazmunidan xabardor bo'lgan Mahmud Yaqub Jandiyni dorga osishga buyuradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tarixiy ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, IX-X asrdan boshlab Xorazmda ikki xil tillilik muhiti tarkib topa boshlaydi. Siyosiy vaziyat taqozosi o'laroq hududga asta sekin arab tili kirib keladi. Ammo, Xorazm tili XIII asr oxirigacha nafaqat so'zlashuv tili, balki arab va tojik tillari singari yozuv tili sifatida o'z ahamiyatini saqlab keladi. XIV asrga kelib bu til turkiy tillar bilan aralashib, assimilyatsiyalashib o'lik tilga aylanadi. Hozirgi kunda Xorazm toponimiyasida o'sha qadimiy tilning ko'plab grammatik va leksik elementlari saqlangan. Xususan, sug'orish tizimlari bilan bo'g'liq bo'lgan qadimgi xorazm tilidagi “arna” (katta kanal), “yab” (kichik kanal) kabi so'zlar bugungi xorazm tilida saqlangan. Bu esa shubhasiz qadimgi xorazm tilining eron tillari oilasiga, aniqrog'i uning sharqiy eron tarmog'iga mansub bo'lganligini ko'rsatadi. XIV-XV asrlardan Xorazmda o'zbek (Chig'atoy) tilning o'giz va qipchoq lahjalari qaror topa boshlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Беруний. Қадимги халқлардан колган ёдгорликлар // Танланган асарлар. 1-Жилд. -Т., “Фан”. 1968. 36-37, 280-286.
2. Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовьях Аму-Дарьи с древнейших времен до XVII века. Сочинения. Том-3. -М.: “Наука”, 1965. Стр. 15-94.

3. Толстов С.П. Основные вопросы древней истории Средней Азии // -ВДИ, 1938, №1 (2) стр. 190-191; Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит // –ВДИ, 1938. №4 (5), стр. 120-145; Древний Хорезм. -М., 1948. Стр. 187-192.
4. Гудкова А.В., Лившиц В.А. Новые хорезмийские надписи из некрополя Ток-калы а проблема «хорезмийской эры» // Вестник ККО АН Р Уз. –Нукус, 1967. №1 (27). Стр. 3-18.
5. Лившиц В.А. Хорезмийский календарь и эры древнего Хорезма. – История, культура, языки народов востока. -М., «Наука». 1970. Стр. 5-16.; ўша муаллиф: Документы. Топрак-кала. ТХАЭ. №14. -М., «Наука». 1984. Стр. 251-286.
6. История древнего Востока. Москва. Выс. шк. 1988. Стр. 221.
7. Косидовский З. Библейские сказания. Сказания евангелистов. Москва. 1990. Стр. 56-57.
8. Фрейман А.А. Хорезмийский язык. М,-Л. 1951. Стр. 7.
9. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. -Т.: “Ўзбекистон”. 2015. 265-266 б.
10. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент. 1964. Стр. 381.
11. Лившиц В.А. Иранские языки народов Средней Азии // Народы Средней Азии и Казахстана. Т-І. Москва. 1962. Стр. 139.
12. Толстов С.П. Лившиц В.А. Датированные надписи на хорезмийских оссуариях с городища Ток-Кала // Советская этнография. 1964. Стр. 64.
13. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. Москва, “Наука”. 1962. Стр. 130.
14. Гудкова А.В. Ток-Кала. Ташкент, “Фан”. 1964. Стр. 112-125.



*Gulnora NURULLAYEVA,
Turon universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisi*

Qarshi davlat universiteti dotsenti Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori To'xtayeva Rano taqrizi asosida.

NON MAHSULOTLARI YARATILISH TARIXI VA UNING INSONIYAT SIVILIZATSIYASIDAGI O'RNI

Аннотация

Ushbu maqolada nonning kashf etilishi insoniyat tarixidagi buyuk kashfiyot ekanligi, nonning paydo bo'lish tarixi, qadimiy qadriyatlariga hurmat, yer yuzidagi global muammo bo'lgan ocharchilikka qarshi olib borilayotgan xalqaro tadbirlar haqida so'z boradi. Shuningdek, insoniyat tosh asrlarida yovvoyi o'simlik dunyosidan iste'mol qilishni boshlagan. Ya'ni, bugdoy ancha to'yimli ozuqa ekanligini bilgan insonni bug'doyga talabi ortib brogan. Yovvoyi holda o'sgan bug'doyni boshqodan ajratib olish uchun tosh asri odamlari juda ko'p vaqtlarini va mehnatlarini sarflaganlar.

Kalit so'zlar: buyuk kashfiyot, non iste'moli, non tayyorlash texnologiyalari tarixi, aziz ne'mat, "Avesto"dagi e'tirof, g'allakorlar, butunjahon non kuni.

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ХЛЕБОБУЛОЧНЫХ ИЗДЕЛИЙ И ИХ МЕСТО В ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Аннотация

В этой статье рассказывается о том, что открытие хлеба является великим открытием в истории человечества, об истории появления хлеба, уважении к древним ценностям, о международных мерах, предпринимаемых против голода, который является глобальной проблемой на земле. Человечество также начало потреблять дикую растительность в каменном веке. То есть человек, который знал, что пшеница-гораздо более питательная пища, испытывал повышенный спрос на пшеницу. Люди каменного века потратили много времени и труда на то, чтобы отделить дикорастущую пшеницу от колоса.

Ключевые слова: великое открытие, потребление хлеба, история технологии выпечки хлеба, заветная щедрость, признание в "Авесте", зерновые, Всемирный день хлеба.

THE HISTORY OF THE CREATION OF BAKERY PRODUCTS AND ITS PLACE IN HUMAN CIVILIZATION

Annotation

This article will talk about the fact that the discovery of bread is a great discovery in the history of mankind, the history of the emergence of non, respect for ancient values, international events against famine, a global problem on Earth. Also, mankind began to eat from the wild plant world in the stone ages. That is, the demand for wheat increased a person who knew that buggu was a much more nutritious feed. People of the Stone Age have spent a lot of time and hard work to separate wild-grown wheat from the spike.

Key words: great discovery, bread consumption, history of bread-making technologies, dear boon, recognition in "Avesto", granaries, World Bread Day.

Kirish. Non – qadim qadimdan ulug'lanib, inson uchun muqaddas va aziz hisoblab kelingan ne'mat. Non – doimiy ravishda har xil ovqatlar bilan qo'shib yoki o'zi alohida iste'mol qilib kelinadigan to'yimli, mazzali va foydali mahsulot hisoblanadi. Nonsiz kundalik hayotni tasavvur qilish juda qiyin.

Non va uning inson organizmiga ta'siri muammosi shu kunga qadar turli soha vakillari tomonidan tadqiq etib kelingan. Ammo non, non mahsulotlari yaratilish tarixi tarixchi olimlar tomonidan alohida tadqiqot muammosi sifatida keng o'rganilmagan. Ushbu muammo, ya'ni biz uchun eng aziz bo'lgan ne'mat - non qayerdan va qachon paydo bo'lganligi juda qiziqarli. Non tarixi shunchalik qiziqarli, hatto u haqida maktablarda alohida fan qilib o'rganilsa bo'ladi.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, nonning paydo bo'lishi tarixi bundan o'n besh ming yillar avvalgi davrlarga borib taqaladi.

Insoniyat tosh asrlarida yovvoyi o'simlik dunyosidan bug'doy boshqolarini tanlab olib, bug'doyni xomligicha iste'mol qilishni boshlagan. Bugdoy ancha to'yimli ozuqa ekanligini bilgan insonni bug'doyga talabi ortib brogan. Yovvoyi holda o'sgan bug'doyni boshqodan ajratib olish uchun tosh asri odamlari juda ko'p vaqtlarini va mehnatlarini

sarflaganlar. Chunki inson u davrda mehnat qilish faoliyatini boshlamagan, yani o'zlashtirma xo'jalikka o'tmagan edi. Keyinchalik donni tosh bilan ezib, undan dag'al holatda bo'lsa ham un olishni boshlashgan. Yorg'uchoq paydo bo'lishi bilan donni tosh orasiga maydalab yorma holatida iste'mol qilina boshlangan.

Nonning ilk ko'rinishi "bo'tqa" holatida bo'lgan. Chunki dag'al yormani iste'mol qilishdan ko'ra suvda suyiltirilgan bo'tqani yeyish ancha qulayroq edi. Yillar o'tgan sayin "bo'tqa non" yanada quyuqroq holatga keltirib borildi. Bug'doy yormasi yanada maydalab, mayinroq holatga keltirildi va sifati yaxshilandi.

Olovning kashf qilinishi bilan bu faoliyat yanada takomillashdi. G'alladan un tayyorlash va xamir qorib, qizitilgan tosh ustiga yoki qo'rga ko'mib non pishirishga o'tildi. Odamlar undan xamir qilib, kunlik ehtiyojlari uchun yetarli qilib pishirib ola boshlaganlar. Chunki ortiqcha non tezda qotib yeyishga yaroqsiz holatga kela boshlagan. Bu holat bir necha yillar davom etgan. Chunki oddiy boshqodan donni ajratib olishdan non holatiga keltirish bosqichlari qadimgi odam uchun murakkab va uzoq davom etgan faoliyat hisoblangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qadimgi odam uchun undan xamir qorib, nonni pishirib olish eng katta

kashfiyot bo'ldi. Tarixchi olimlarimiz taxminan 7500 yillar ilgari Misrda non kashf etilgan deb hisoblaydilar. Misrda nonni quyoshga qiyoslashgan. Nonni doira shaklida tayyorlanishida ham quyosh shakliga o'xshatilishi bo'lgan bo'lsa ajab emas. Nonning bahosi qimmatbaho metall hisoblangan olinga tenglashtirilgan. Qadimgi Misrda non alohida taom sifatida dasturxoniga tortilgan. Uni boshqa ovqatlarga aralashtirib iste'mol qilinmagan. Nonning o'zi alohida taom hisoblangan. Dastlab bug'boy unidan tayyorlangan nonlar shu qadar qimmat bo'lganki, uni faqat boy xonadonlar a'zolarigina iste'mol qila olganlar. Mehmonlarga ham o'ta taniqli taom sifatida tortiq qilingan. O'rta holda yashaydigan aholi arpa donidan tayyorlangan nonni, kambag'allar esa faqat sorgo donidan tayyorlangan nonni iste'mol qilishgan.

Xamirni kechqurun tayyorlab ertalab pishirmoqchi bo'lgan inson xamirni achishi hisobiga birmuncha yumshoq bo'lishini, yani xamir ko'tarilib, oralari g'ovaksimon bo'lishini va uni pishirganda qattiq nondan ko'ra anchagina mazzali va yumshoq bo'lishini bilib olgan. Shu tariqa xamirturushli nonlar iste'mol qilinadigan bo'lgan. Xamirturushli nonlarni tarixchilarimiz miloddan avvalgi 6000 yillarda Mesopotamiyada kashf qilingan deb hisoblaydilar. Misliklar keyinchalik Mesopotamiyaliklardan miloddan avvalgi 3000 yillarda xamir qorishda achitqidan foydalanishni o'rganib olganlar.

Dehqonchilikning eng qimmatbaho mahsuloti sifatida ta'riflangan bug'doyni yetishtirilishi, bug'doydan un olinishi, xamirturush kashf etilishi hamda tandir, o'choq, tova va boshqa non pishirish vositalarining yaratilishi va takomillashuvi, tortilgan undan non tayyorlash hozirgi zamonga qadar davom etib kelayotgan yangi, takomillashgan bosqichga ko'tarildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Non tayyorlash avval uy xo'jaligida, har bir xonadon a'zolariga yetarli tarzda faqat uy bekalari bo'lgan ayollar va xonadon cho'rilari tomonidan tayyorlangan. Sivilizatsiya tufayli paydo bo'la boshlagan shaharlarda un tayyorlash uchun alohida tegirmonlar hamda tegirmonshilik kasbi, shuningdek non pishiriladigan novvoyxonalar hamda novvoychilik kasblari shakllanib bordi. Novvoylik bilan erkaklar ham shug'ullanadigan bo'ldilar.

Bundan ikki ming yillar avval Qadimgi Rimda yashagan mashhur novvoy Mark Vergiliyga 13 metrqa yetadigan monument o'rnatilgan. Mark Vergiliyga atab qad ko'targan monument hozirgacha saqlanib qolgan. Uning novvoyxonalar qariyb butun rimliklarni non bilan ta'minlab turgan. Qadimgi Rimda non tayyorlash san'at darajasiga ko'tarilgan va non tayyorlovchilar hurmatli insonlar hisoblanishgan.

Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi shakllab borgach, nonni turli xilda tayyorlash boshlab yuborildi. To'rt ming yillar avval Hindistonda kulochilik tandirlari paydo bo'lgan. Hozirda esa xuddi shunday tandirlar O'rta Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

Qadimgi Rusda nonlar ko'proq javdar unidan to'rtburchak shaklda yoki doira shaklida tayyorlanib, uylarini isitish uchun qurilgan pechlarida pishirilgan. Har bir rus xonadonlarida uy bekalari tomonidan oila a'zolari uchun yetarli qilib non tayyorlangan. Uzoq yo'lga chiqqan kishi oldida doim noni bo'lishi shart deb hisoblashgan.

Nasroniylik dinida non - bu xudoning o'zi, parvardigorning tanasi hisoblangan. Bir vaqtning o'zida non bu Xudoning in'omidir deyilgan. Xudo insonni non bilan ta'minlaydi, odam o'z ulushini yeganda, "ulushini", yani taqdirini, baxtini oladi deb hisoblanadi.

O'rta asrlarda Yevropa davlatlarida ovqatlanish vaqtida har bir kishi oldiga qo'yilgan non bo'lgi o'sha odam tomonidan oxirigacha yeyilishi shart bo'lgan. Tishlangan

nonni oxirigacha yemasdan qoldirish og'ir gunoh hisoblangan. Kichik bo'lakchasini ham qoldirish mumkin bo'lmagan.

Nonni tayyorlash texnologiyasi bilan yer yuzida butun insoniyat tanisha boshladi va O'rta Osiyo hududlarida ham keng tarqalib, nonni e'zozlash bu hududlarda ham kuchaydi. Mashhur tarixiy manbamiz bo'lgan "Avesto"da nonga deyarli bir bob bag'ishlangan. Avestoda "Bug'doy o'stira boshlansa, devlarni ter bosadi, sovurilgan bug'doy tayyor bo'lsa, devlar zaiflashib qoladi. Un tayyor bo'lgach devlar nolayu-fig'on chekishadi.

Insoniyat o'z boshidan ikkita jahon urushini va ko'plab urushlarni o'tkazdi va o'tkazmoqda. Urush bo'layotgan hududlarda xalq oziq-ovqat tanqisligiga uchraydi. Shu vaqtda insonni bir burda nonga zor bo'lish holati tez-tez uchray turadi. Xususan urush va inqiroz yillarida yashagan keksalardan nonni e'zozlash haqida juda ko'p marotaba eshitganmiz. Non milliardlab insonlarni hayotini asrab qolgan. Aytish mumkinki, non inson uchun hayot garovi ekan. Ikkinchi jahon urushi yillarida "Toshkent-non shahri" degan ta'rif ham bekorga paydo bo'lmagan. Xalqimiz - nonni ushug'ini ham do'sti bilan baham ko'radigan qo'li va qalbi ochiq xalq. Har bir xonadonda nonning bo'lishi to'kinlik va tinchlik-xotirjamlik ramzi bo'lib hisoblanadi desak adashmaymiz. Nonni xalqimiz Allohning marhamati, deyishi bejizga emas.

Tahlil va natijalar. Yirik shaharlarning paydo bo'lishi, sanoatning taraqqiy qilishi non ishlab chiqarishni keng ko'lamda tashkil etishni taqozo qildi. Natijada non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar - zavodlar va kombinatlar yaratildi, ularning texnologik jarayonlari yuzaga keldi, non sanoati paydo bo'ldi. Hozirgi paytda har bir mamlakatda aholining tarixiy ma'naviyati negizida paydo bo'lgan non mahsulotlarining turli xillari paydo bo'ldi. Asarlar davomida novvoylar mahoratining o'sishi va texnologik usullarining takomillashuvi natijasida obi, gijda, patir, shirmoy nonlarning turli xillari tayyorlanadi. Bugunga kelib non mahsulotlarining 40000 dan ortiq turlari mavjud hisoblanadi. Bundan tashqari bug'doy bilan birga javdar, makkajo'xori, sholi va hatto grechka unidan ham non tayyorlanadi.

O'tmishda ajdodlarimiz nonni juda ulug'lashgan. Hozirgacha o'zbek zaminida qadimiy va muqaddas urf-odatlariga rioya etiladi, ya'ni non juda ham e'zozlanadi. Momalarimiz non solingan savatlarni faqat boshlarida tashishgani ham bejizga emas. Bu qadriyat hozirga qadar saqlanib qolgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni boshlari tomonga kulcha nonni qo'yib "yomonliklardan asraydi" deyilishi, kelin bo'lib ota uyidan ketayotgan qizlarimiz qo'yniga nonni qo'yib "risqing mo'l bo'lsin" deyilishi, uzoq safarga ketayotganlarga nonni tishlatib olib qo'yilishi bilan "eson-omon qaytib kelgin" deyilishi yoki yoshlarni unashtirishda qo'shaloq nonlarni ushatib "qo'shsha qarib yuringlar" deb niyatlar qilinishi ham katta ma'noga ega. Nonni ulug'lab, "nondan hatto shoh ham bosh tortmaydi", deydi xalqimiz.

Olimlarimizning fikricha, insoniyat o'ziga kerak bo'lgan kaloriyaning 30%ni ko'pincha nondan olar ekan. Non tarkibida inson organizmi uchun juda muhim aminokislota - lizin, klechatka, magniy, kaliy kabi bir necha xil muhim moddalar borki, ularsiz inson o'z sog'ligini yo'qotgan bo'lur edi.

Non va non mahsulotlarini ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo un ekanligini hisobga olgan holda, barcha davlatlar qatori O'zbekistonda ham bu'doy yetishtirish hamda un tayyorlash davlat va hukumat oldida turgan bosh vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Mustaqillikka erishgach bu vazifa e'g muhim vazifa bo'lib qolgan edi. Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda g'alla mustaqilligi mavjud bo'lmagan holda, un boshqa Ittifoqdosh Respublikalardan

yetkazib turilardi. Bunday tizim ataylab Ittifoqdosh Respublikalarni Markaz tomonidan bo'sundirib turish maqsadida tashkillashtirilgan edi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston shunday og'ir vaziyatdan faqat davlatimiz, hukumatimiz tomonidan olib borilgan oqilona siyosati tufayli chiqib keta oldi.

Yurtimizda bugungi kunga kelib g'allakorlikni rivojlantirishga va g'alla mustaqiligini ta'minlashga e'tibor kuchayib bormoqda. G'allakor dehqonlarimizga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buni olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda ko'rishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston qishloq xo'jalik xodimlari kuni munosabati bilan dehqon, fermer va agrar soha vakillariga yo'llagan tabrigida, "Boshqoqli don yetishtirish va xarid qilishning yangi tizimi joriy etilib, dehqonlarimizning omborlari donga, ro'zg'ori qut-barakaga to'layotgani, agrar sohani moliyaviy qo'llab – quvvatlash maqsadida xalqaro imtiyozli kreditlar ajratilgani, mahsulot yetishtirish, sug'orish, urug' va ko'chat sotib olish bilan bog'liq xarajatlar subsidiya hisobidan qoplab berilayotganligini alohida aytishimiz lozim", deb g'allakorlik sohasida olib borilayotgan ishlarga baho berdi.

Prezidentimizning 2019 yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020 yilda amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida 2020 yil 1-oktyabrdan boshlab aholini don mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash va narxlarini keskin o'zgarishini oldini olish maqsadida investitsion xaridlar tizimibosqichma bosqich joriy etiladi, deb belgilab qo'yildi.

Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat, qabul qilinayotgan qarorlar xalqimizni

asosiy oziq-ovqat mahsuli hisoblangan non bilan sifatli tartibda ta'minlanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Non bug'doyni sifatli qilib yetishtirish, undan mo'l hosil olish, qabul qilib olingan bug'doydan zavod - korxonalarda sifatli un tayyorlash va nihoyat xonadonimizga chiroyli hamda mazzali holatda kirib kelguncha bir necha murakkab bosqichlarni bosib o'tadi. Har bir bosqichdagi vazifalarni sifatli bajarilishi mehnatkash insonning o'z ishiga sitqidildan yondashishiga bog'liq.

Dunyoning har bir mamlakatida non va non mahsulotlari sevib iste'mol qilinadi. Bugungi kunda non eng oliy mehmondo'stlik va muqaddaslik ramzi hisoblanib qolgan. Mehmonlar albatta shu aziz ne'mat bilan kutib olinadi.

Xulosa va takliflar. Nonning o'z bayrami- Butunjahon non kuni borligi ham bejizga emas, shu bayram har yili 16-oktabrda nishonlanadi. Butunjahon non kuni keng jamoatchilik e'tiborini dunyodagi ochlik, qashshoqlik va to'yib ovqatlanmaslik muammolari mavjud ekanligiga qaratishdir. Shu bois, an'anaviy ravishda, ko'plab mamlakatlarda Butunjahon non kuni turli xil non mahsulotlari ko'rgazmalari, novvoylar va qandolatchilar uchrashuvlari, yarmarkalar, mahorat darslari, xalq sayllari, shuningdek muhtojlarga bepul non tarqatish, xayriya tadbirlari o'tkaziladi.

Bayram 2006 yildan boshlab o'tkazib kelinmoqda. 1945 yil 16-oktabrda qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishdagi muammolarni hal qilish bilan shug'ullanadigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tuzilgan va shu kuni Butunjahon non kuni deb e'lon qilingan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston qishloq xo'jalik xodimlari kunidagi tabrik. 2022 yil. 11-dekabr.
2. Axmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari.-T.: «O'qituvchi». 2001.
3. Saidqulov T.S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixnavisligidan lavhalar.-T.: «O'qituvchi». 1993.
4. Собрание восточных рукописей Академии Наук Республики Узбекистан. История. Составители Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова.-Т.: «Фан». 1998.
5. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература. Средней Азии XVI-XVIII в.-Т.: «Фан». 1985.
6. Бейсенбиев Т.К. «Тарихи Шахрихи» как исторический источник. Алма-Ата. 1987.
7. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik.-T.: 2002.



UDK: 02.004. (584.4)

Xabibjon OLIMJONOV

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: olimjonov_1860@mail.ru

O'zMU professori, t.f.n Z.Saidboboyev taqrizi asosida

TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHI TARIXI (1918–1920 yy.)

Аннотация

Maqolada 1918–1920-yillarda Turkiston ASSRda kutubxona ishida sodir bo'lgan o'zgarishlar, Kutubxonachilik bo'limining tashkil qilinishi, kitoblarning musodara qilinishi, yangi kutubxonalarning tashkil qilinishi hamda kutubxona ishi bo'yicha yangi nizom, tartib-qoidalarining ishlab chiqilishi, Turkiston o'lkasidagi mavjud bo'lgan ilmiy, ommaviy, maxsus va shaxsiy kutubxonalarning musodara qilinishi, xalq xo'jaligi muassasalari o'rtasida taqsimlanishi, Sovetlar tomonidan yangi tashkil qilingan kutubxonalar faloliyati kabi ma'lumotlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, kutubxona, kitobxon, bibliofil, arxiv, hujjat, katalog, kartoteka, ma'lumot, nizom.

ИСТОРИЯ БИБЛИОТЕЧНОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАН АССР (1918-1920)

Аннотация

В статье описаны изменения в библиотечной работе в Туркестанской АССР в 1918-1920 годах, создание библиотечного отдела, конфискация книг, создание новых библиотек, а также разработка новых правил и порядка библиотечной информации. исследованы такие, как конфискация существующих научных, публичных, специальных и частных библиотек в Туркестане, их распределение по общественным хозяйственным учреждениям, а также деятельность вновь созданных Советами библиотек.

Ключевые слова: Туркестанская область, библиотека, читатель, библиофил, архив, документ, каталог, картотека, сведения, устав.

HISTORY OF LIBRARY WORK IN TURKESTAN ASSR (1918-1920)

Annotation

The article describes the changes in library work in the Turkestan ASSR in 1918-1920, the establishment of the Library Department, the confiscation of books, the establishment of new libraries, and the development of new regulations and procedures for library work. Information such as the confiscation of existing scientific, public, special and private libraries in Turkestan, their distribution among public economic institutions, and the activities of libraries newly established by the Soviets have been researched.

Key words: Turkestan region, library, reader, bibliophile, archive, document, catalog, card file, information, statute.

Kirish. Bugun xalqaro maydonda davlatlar o'rtasida tinchlikni saqlash, millatlararo bag'rikenglik, totuvlikni ta'minlash hamda odamlarni tinchlik o'rnatish yo'lida birlashtirish, ma'naviyatli insonlarni tarbiyalashda kutubxona va kitoblarning o'rni alohida belgilanmoqda. Dunyoning bir qator ilmiy-tadqiqot muassasalarida kutubxonalarning paydo bo'lishi, xizmat ko'rsatish tizimini shakllanishi, zamonaviy axborot-texnologiyalar bilan ta'minlanishi, millatlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlashda kutubxonalarning o'rniga doir ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda kutubxona va kitoblarning o'rniga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Bugun ma'rifatga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir, yangi uyg'onish davri kitob va kutubxonalardan boshlanadi"[1] deb, ta'kidlab o'tgan. Xozirgi kunda yurtimizda 400 da ortiq kutubxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning salmog'ini oshirish va kitob fondlarini kengaytirish, tinchlik hamda totuvlikni targ'ib qiluvchi yangi adabiyotlarni shakllantirish muhim vazifalardan sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni o'rganishda mazkur kutubxonada ko'p yillar turli lavozimlarda mehnat qilgan Y.K.Betgering (1887–1956) asarlari katta hissa qo'shgan. Afsuski uning kutubxona ishi

tarixi doir 1945-yilda yaratilgan "Madaniyatning chorakam bir asrlik tarixi" nomli asari chop etilmay qolib ketgan.

XX asrning 60-yillarida Turkistonda kutubxona ishi tarixi bo'yicha tadqiqotlar davom ettirilgan. 1966-yilda bir qator tadqiqotchilarning mustamlaka Turkistonda ilmiy jamiyatlarining kutubxonalari haqida maqolalar nashr etilgan. Tadqiqotchi A.I.Kormilitsin kutubxona ishi sohasidagi izlanishlari asosida 1969-yili "Inqilobga qadar Turkistonda kutubxona ishining rivojlanishi tarixi (1868–1917 yy.)" mavzusidagi tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotchilar O.G'.Qosimova, A.Y.Konareva, M.A.Rahimova, B.K.Karimov, N.A.Rubakin, N.M.Sikorskiy, O.S.Chubaryan, N.Y.Dobrinina, A.Y.Ayzenberg, A.Vaneyev, N.S.Kartashov, Yu.N.Stolyarov, O.G'.Qosimova, E.Y.Yo'ldasheva, E.O.Oxunjonov, M.A.Raximova, M.Sh.Shamsiyev, M.M.Turopov va boshqalarning tadqiqotlari ham shular jumlasidandir.

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqot ishida qiyosiy tahlil, muammoviy va miqdoriy tahlil, tizimlilik, shuningdek, tizimlashtirish, tarixiy-tipologik, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Shuningdek, g'oyaviylik va vatanparvarlik, tarixiylik hamda xronologik izchillik, umumlashtirish va modellashtirish kabi yangi metodologik usullar keng qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, 1917-yil oktyabrda Rossiya imperiyasida bo'lib o'tgan voqealar sabab katta o'zgarishlar yuz bergan. Imperiyaning tugatilishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan sovetlarning mustamlakachilik hukumronligi tashkil topdi. 1867–1917-yillarda Turkiston general-gubernatorligi deb atalgan o'lkamiz nomi RSFSR tarkibida asos solingan Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR)ga aylantirilgan.

Turkiston ASSR – Turkiston o'lkasida sovet tuzumi o'rnatilgandan keyin bolsheviklar tomonidan tuzilgan hamda RSFSRga kirgan avtonom respublika (1918 – 1924 yy.) hisoblanib, maydoni 1 324 994 km². Aholisi 5 milliondan ziyodni tashkil qilgan, ma'muriy markazi Toshkent shahri etib belgilangan.

Turkiston ASSRda kutubxona va madaniyat muassasalar faoliyati ziddiyatli tarzda kechgan. Bir tomondan imperiya davrida asos solinga kutubxona, kitob nashriyotlar, kitob do'konlar, davriy matbuot organlar faoliyati tugatilib, ularning kitob fondlari musodara qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi hokimiyat sovet kutubxonalari, maktablari, gazazeta va jurnallar, madaniyat muassasalar: klublar, madaniyat uylari, qizil choyxonalar tashkil qilishga alohida e'tibor qaratib, mahalliy aholi ongiga mustamlakachilik g'oyalari singdirishga harakat qilgan.

Bu yillar Turkiston kutubxona ishi tarixida ham katta o'zgarishlar davri bo'lib, Maorif xalq komissarligi huzurida Kutubxonachilik bo'limi tashkil etilgan hamda unga katta vakolatlar berilgan. Barcha kutubxonalar: ilmiy, ommaviy, maxsus, jamiyat va shaxsiy kutubxonalarning kitob fondlari hamda bozorlaridagi kitob do'konlarining kitob to'plamlari davlat tasarrufiga o'tkazilgan. Ko'p yillardanbuyon faoliyat yuritib kelayotgan Turkiston ommaviy kutubxonasi, "Ma'rifat", "Birlik", "Madora", "G'ayrat" kabi shaxsiy kitob fondlari, Turkiston, Isloh, Osiyo, Turon singari yirik mahalliy kutubxonalar, turli ilmiy jamiyatlarning kutubxonalari, jaded ma'rifatparvarlaridan Is'hoqxon Ibrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidhonov hamda boshqa ziyolilarning shaxsiy kutubxonalari davlat mulki sifatida musodara qilindi.

Bu yillar Sovet hukumatini sotsialistik, komunistik boshqaruv ma'nfatlarini Turkiston o'lkasida mustahkamlash davri sifatida tarixga kirib, o'lkadagi barcha mahalliy va imperiya davrida tashkil topgan barcha turdagi nashriyotlar tugatilishi boshlangan. 1918-yil 29-martda Turkiston xalq komissarlari kengashi o'lkadagi bosmaxonalar va tosh bosmaxonalarni davlat mulki deb e'lon qilish to'g'risida Farmonni qabul qilib, Turkiston o'lkasidagi barcha bosmaxonalar hamda tosh bosmaxonalar davlat ixtiyoriga topshirilib, boshqarish mazkur korxonalarining bor mol mulki bilan birga ularning ishchi tashkilotlari – o'lka Xalq Xo'jaligi Kengashi xuzuridagi matbaachilik bo'limi ixtiyoriga o'tkazilgan [6]. Shu yili o'lkadagi 20 ta matbaachilik nashriyot uylari davlat tasarrufiga o'tkazilib, 1919-yilda xususiy kitob ishlab chiqarish korxonalarini to'liq davlat mulkiga aylantirilgan.

1919-yil yanvarda Turkiston xalq komissarlari Toshkent kengashi boshlig'i tomonidan shahar kitob savdosi korxonalarining kitob fondlarini musodara qilish va ularni sovet muassasalari o'rtasida taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilinib, shaxsiy kitob ishlab chiqaruvchi korxonalar va do'konlarda juda ko'p kitoblar musodara qilingan. Ushbu kengash tomonidan ishlar jadallastirilib, Toshkent shahridagi "Sobberey" nomli shaxsiy kitob ishlab chiqaradigan korxonaning qarshilik ko'rsatishiga qaramay 101775 nusxa kitob musodara qilingan [2].

Turkiston xalq komissarlari Toshkent kengashi tomonidan kutubxona ishiga e'tib qaratilib, 1919-yil 27-marta "Kutubxonalar va kitoblarni qo'riqlash to'g'risida

Farmonining barcha korxonalar va tashkilotlar tomonidan majburit tartibda ijro etilishi to'g'risida buyrug'i" qabul qilingan. O'lkada kutubxona ishini tashkil qilish va boshqarish maqsadida Maorif xalq komissarligi huzurida Kutubxonachilik bo'limi ochilgan. 1919-yil 14-iyulda ushbu bo'limning: Turkiston o'lkasidagi kutubxonalarni davlat mulki sifatida tashkil qilish, musodara qilingan kitob fondlarini respublikada yangi tashkil qilingan kutubxonalar o'rtasida teng taqsimlash, o'lkada kutubxona ishini tashkil qilish va rahbarlikni amalga oshirish, yangi kutubxona hamda o'quv xonalari, ko'chma kutubxonalar barpo etish va kitoblar bilan ta'minalsh, kutubxona ishi bo'yicha kadrlar tayyorlash kabi yirik vakolatlari kengaytirilgan.

O'rta Osiyolik yirik kutubxonashunos bibliograf Y.K.Betger Kutubxonachilik bo'limining birinchi mudiri, o'lka kutubxona ishi bo'yicha inspektor bo'lgan. Rossiya geografiya jamiyati Turkiston bo'limi kutubxonasining sobiq xodimi B.N.Smolin, Turkiston Xalq kutubxonasi direktori N.N.Kulinskiy ham mintaqada kutubxona ishini yangi tizimini ishlab chiqishda va yo'lga qo'yishda samarali mehnat qilishgan.

Bunga qadar Turkiston o'lkasidagi barcha kitob fondlari muassasa va tashkilotlarning o'z kutubxonasida saqlangan. Endilikda, musodara qilingan kitoblarning barchasi Toshkentdagi Turkiston xalq kutubxonasiga keltirilgan. Kutubxonada kitoblar yaxshi holatda emasdi, kataloglar to'liqsiz va yomon ahvolda, barcha kitob fondlari bo'yicha yagona katalog yo'q edi. Borlari ham ancha oldin ishlab chiqilgan bo'lib hozirgi kitob fondlariga mos kelmasdi. Ayniqsa fondlarni saqlash uchun xonalar yetishmasligi natijasida 1919-yilning yozida kutubxona hovlisida yuz minglab kitoblardan iborat uyumlar hosil bo'lgan. Musodara qilingan kitoblar bilan bog'liq bunday vaziyat o'lkaning boshqa viloyatlarida ham kuzatilgan.

Bibliograf E.K.Betgerning harakatlari bilan Turkiston xalq kutubxonasini va viloyat hamda tuman markazlaridagi kutubxonalar ahvolini yaxshilash bo'yicha komissiya tuzilib, 1918-yil o'rtalarida "umumjahon kasr tasnifi" risolasini- ishchilar tomonidan milliyashtirilgan Turkiston kutubxonalaridan foydalanish uchun chop etilgan [3]. Risola bir zumda tarqalib, so'rovlar, asosan, keng Turkistonning turli hududlaridan kelib tushgan. Mazkur qo'llanma qayta nashr etilganda, Y.K.Betger Universal o'nlik klassifikatsiyasi (UO'K) rasmiy jadvallarining yetishmasligi bilan bir xil muammoga duch kelib, ularni o'z aql-zakovati bilan to'ldirgan.

Keyinchalik Y.K.Betgerning faoliyati bilan tanishib, Yevropa Ittifoqining avvalgi markazi, Belgiya Respublikasining poytaxti Bryussel shahridagi Xalqaro kutubxona instituti jadval ishlab chiquvchilari Y.K.Betgerga uning mehnati va innovatsion g'oyalari uchun minnatdorchilik bildirib, Turkiston xalq kutubxonasiga maktub yo'llagan (shu o'rinda UO'K tarixi bo'yicha qisqacha ma'lumot: XX asrning boshlarida Belgiya bibliograflari Pol Otlet va Henri Lafonten tomonidan yaratilgan bo'lib, UO'Kning markaziy qismi barcha bilimlarni qamrab oladigan va raqamli kasr kodidan foydalangan holda umumiy va shaxsiy bo'linishning ierarxik tamoyiliga asoslangan asosiy jadvallardir. Aniqrog'i UO'K indeksiga ko'ra, kitobni o'qimasdan qaysi mavzu va adabiyotni o'z ichiga olishi mumkinligini aniqlash mumkin). Y.K.Betger tomonidan tuzilgan UO'K va boshqa kutubxona texnikalaridan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma, ko'p yillar davomida Turkistonning turli viloyat va shahar kutubxona xodimlari uchun asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Shu orqali Rossiya ilmiy jamiyat Turkiston bo'limining kutubxonalari, Turon, Turkiston, Osiyo, Isloh kutubxonalari, kutubxonayi Is'hoqiya, kutubxonayi Behbudiya, Samarqanddagi XIV – XVI asrlarga tegishli

Temuriylarning sulolaviy kutubxonalari, Toshkent o'qituvchilar seminariyasining kutubxonasida o'n yillar mobaynida to'plangan kitob fondlari parokanda bo'lishining oldini olishga muvaffaq bo'lingan.

UO'K tizimida kartotekalarni yaratish bilan bir vaqtda qulay o'quv xonalari tashkil etish, kitob fondlarni bilim sohalari bo'yicha taqsimlash va ularning to'liq ro'yxatga olish belgilanib, 1918-yildan 1920-yilga qadar Turkiston xalq kutubxonasi fondini ikki barobarga: 40 mingdan 88 mingtagacha ko'payishi kuzatilgan. Ularni tizimlashtirish va hisobga olish bo'yicha darhol amaliy ishlar yo'lga qo'yilgan. Y.K.Betger ham qatnashgan "qayta tashkil etish komissiyasi"ning sa'y-harakatlari tufayli 1920-yil yozida uchta o'quv bo'lim: ("umumiy", "bolalar" va "musulmon"), alifbitli va mavzuli kartotekalarni (UO'K bo'yicha) va yettita mustaqil bo'lim: umumiy fan, turkistonshunoslik, sharqshunoslik va boshqa bo'limlari faoliyat yuritgan [4]. Komissiyaning vakolatli va faol ishtirokchisi Y.K.Betgerga kutubxonaning qadimiy va noyob kitoblari bo'limi esa alohida ahamiyat kasb etgan [2].

Kutubxona ishi bo'yicha kadrilar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratilgan. Malakali kutubxonachi va bibliograflarning tayyorlashning yo'lga qo'yilishi yangi tashkil qilinayotgan kutubxona ishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. 1919-yil Kutubxonachilik bo'limi tomonidan kadrlar tayyorlash uchun Toshkentda o'qituvchilar seminariyasida ikki oylik kurslar tashkil qilinib, respublikaning turli shaharlaridan kutubxona xodimlari jalb qilingan. Bir yil ichida 40 nafar kutubxonashunos o'quv mashg'ulotlarni yakunlab, o'z malakasini oshirgan. Shu yilning kuzida Samarqandda ham ikki oylik qisqa kurslar tashkil etilib, 27 nafar kutubxona xodimining malakasi oshirilgan.

Turkiston xalq kutubxonasida kitoblarni kataloglashtirish va tasniflash masalalari ham e'tibordan chetga qolmay, fondlar salmoqlanib brogani sayin o'nlik sistema tasnifiga doir katalog jadvallar tuzish masalalarni yaxshilashni hamda kataloglar tuzishni tezlashtirib yuborgan.

Turkiston xalq kutubxonasining birinchi direktori N.V.Dmitrovskiy "Turkiston xalq kutubxonasi rus bo'limi kitoblarining katalogi"da qabul qilingan o'nlik sistema hozirgi davr kitobxonalarining ehtiyojlarini ta'minlay olmayotgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan kengayib borayotgan kutubxona tizimi, kitoblar fondi va kitobxonalar ko'lamiga to'g'ri keladigan kutubxona kitoblarini klassifikatsiya qiladigan tizim zaruratga aylangan. Bir necha yillik samarali mehnat tufayli anashunday tizim ishlab chiqilgan. 1918-yil to'plangan ko'p yillik tajribasidan foydalanib, Y.K.Betger, L.K.Davidov va A.A.Metlenkov yangi kataloglar, ko'rsatgichlar, ish yuritish daftarlari, kitoblardan izlab topilgan muayyan indexlar bo'yicha o'nlik sistemasini ayrim bo'limlarini tiklab, "Kutubxona kitoblarining o'nlik tasnifi"ni oxiriga yetkazgan [5].

1919-yil 30-apreld Turkistonda kutubxona ishining birligi va yaxlitligini ta'minlash maqsadida "Turkiston xalq kutubxonasi fondlarini markazlashtirilgan tartibda kataloglashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Nizom" ishlab chiqilgan va Maorif Xalq Komissarligi tomonidan tasdiqlangan. Nizomga ko'ra barcha kutubxonalar tashkil etilishi, kitob fondini yaratilishi va ish yuritishi bixillashtirilgan

Kutubxona xodimi va foydalanuvchilari uchun ham yangiliklar yaratilish maqsadida bibliograf Y.K.Betger tashabbusi bilan, bir xil mavzu va mazmunga ega bo'lgan

barcha kitob fondlarini titul varaq hamda muqovasining yuqori o'ng burchagiga o'nlik indexni qo'yish taklif qilingan [7]. Bu kutubxona xodimiga fondlarni joy-joyiga qo'yish, kitobxonlarga esa kerakli adabiyotlarni qidirib topishni qulaylashtirish imkonini bergan. Kutubxona ishida bunday o'zgarishlar natijasida 1921-yil 1-yanvarga kelib kataloglashtirish ishlari ham qayta boshlanib, ikki: alifbitli va mavzuli kataloglar ishlab chiqilgan. Mavzuli katalog "Kutubxona kataloglarining o'nlik tasnifi" bo'yicha tuzilgan bo'lib, kataloglarga 600 mingtagacha kartochka kiritilib, kataloglar tuzish hamda adabiyotlarga ishlov berish keng ko'lamda yo'lga qo'yilgan.

1921-yilning oxirida alohida kataloglar bo'limi tashkil etilib, bo'limga mudir etib A.A.Metlenkov taynlangan. U respublikadagi kutubxona kitoblarining tasniflashni yangi maktabining asoschilaridan bo'lgan. Bu ishlar ayni vaqtda zamonaviy texnika va texnologiyalar bo'yicha ishlab chiqishni taqazo qilgan. 1922-yilda bu ishlarga bibliograf Y.K.Betger faol kirishib, avvalgisidan farqli o'laroq, so'zboshi, metodik ko'rsatmalar va foydalanish qoidalari bilan to'ldirilgan. Bu nisbatan zamonaviy kutubxona ishida qoidalar, nafaqat Turkistonda balki, butun O'rta Osiyoda mashhurlikka erishgandi.

Bu jarayonlar o'lka kutubxona ishi bo'yicha inspektor B.N.Smoln tomonidan tuzilgan "Kutubxona ishi texnikasi bo'yicha qisqacha qo'llanmasi"ni vujudga keltirib, kataloglashtirishning asosiy qoidalari hamda kutubxona ishining boshqa masalalari yoritilgan. Qo'llanma kutubxona xodimlariga fondlar va kataloglarni tashkil etishda katta yordam bergan.

Kutubxona fondlarini butlashga Turkiston matbuot bo'limi mas'ul bo'lib, 1919-yilning mayidan 1922-yilning fevraligacha kitob, gazeta hamda jurnallar bilan ta'minalab turgan. 1920-yilning boshiga kelib, Turkiston ASSRda 174 ta yangi tashkil etilgan kutubxona, 172 ta o'quv xonasi, 176 ta mahalla guzarlaridagi qizil choyxonalarda kutubxona hamda o'quv xonalari bilan birga tashkil qilingan.

Xulosa va takliflar. O'lkada Turkiston Maorif xalq komissarligi huzurida Kutubxonachilik bo'limi tashkil etilishi hamda unga kutubxonalarini boshqarishda katta vakolatlar berilishi bilan bog'liq tahliliy ma'lumotlar bo'yicha quyidagi:

birinchidan, 1918-yildan o'lkdagi ilmiy, ommaviy, maxsus, jamiyat va shaxsiy kutubxonalarning kitob fondlari hamda bozorlaridagi kitob do'konlarining kitob to'plamlari davlat tasarrufiga o'tkazilishiga,

ikkinchidan, ko'p yillar davomida faoliyat yuritib kelayotgan Turkiston ommaviy kutubxona, "Ma'rifat", "Birlik", "Madora", "G'ayrat" kabi shaxsiy kutubxonalarning kitob fondlar, "Turkiston", "Isloh", "Osiyo", "Turon" kabi yirik mahalliy kutubxonalar, turli ilmiy jamiyatlarning kutubxonalar, jadid ma'rifatparvarlari Is'hoqxon Ibrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munnavar Qoridek hamda boshqa ziyolilarning shaxsiy kutubxonalarini davlat mulki sifatida musodara qilinganligi *xulosalari kelib chiqgan.*

Mazkur davrdagi kutubxona ishi tarixini o'rganish orqali olingan xulosalardan kelib chiqib, O'zbekistonning yangi bosqichida yoshlarni kitob va kutubxonalariga munosabatini yaxshilash, mamlakatimizdagi kutubxonalar salmog'ini oshirish hamda kitob fondlarini kengaytirish, tinchlik hamda totuvlikni targ'ib qiluvchi yangi adabiyotlarni shakllantirish chora-tadbirlarni chuqurlashtirish *taklif va tavsiya* etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
2. Охунжонов Э.О. Ватан кутубхонашунослиги тарихи. 2-қисм. – Тошкент: "Адолат", 2008.

3. Бетгер Е.К. Туркестанская государственная библиотека (1918–1922 гг.). Краткий исторический очерк // “Наука и просвещение”. – Ташкент, 1922. – №2.
4. Авшарова М.П., Виридарский М.С. Евгений Карлович Бетгер (1887–1956): Фаолият ҳаёти ҳақида иншо. – Тошкент, 1960.
5. Қосимова О., Есимов Т. Умумий кутубхонашунослик. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994.
6. Касимова А.Г. История библиотечного дела в Узбекистане. – Ташкент: “Ўқитувчи”, 1981.
7. Охунжонов Э.О. Ватан кутубхонашунослиги тарихи. 1-қисм. – Тошкент: “Адолат”, 2004.
8. Olimjonov X.A. Turkistonda kutubxona ishi tarixi (1870-1917 yy.): T.f.f.d. (PhD) dissertat. – Toshkent, 2022.



UDK: 792 (091)

Kamola OCHILOVA,
QarMII tadqiqodchisi
E-mail: azamat.eralov.95@mail.ru

QarsMII dotsenti, PhD A.Eralov taqrizi asosida

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON TEATRLARINING XALQARO ALOQALARI MASALASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston teatrlarining xalqaro aloqalari masalasi haqida so‘z boradi. Muallif ilmiy ma‘lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida mustaqillik yillarida O‘zbekiston teatrlarining xalqaro aloqalari bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan va tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, O‘zbekiston, teatr, xalqaro aloqalar.

ВОПРОС МЕЖДУНАРОДНЫХ СВЯЗЕЙ ТЕАТРОВ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос международных связей узбекских театров в годы независимости. Автор, опираясь на научные данные, на основе доступной литературы изучил и проанализировал конкретные аспекты международных связей театров Узбекистана в годы независимости.

Ключевые слова: Независимость, Узбекистан, театр, международные отношения.

THE ISSUE OF INTERNATIONAL RELATIONS OF UZBEKISTAN THEATERS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article deals with the issue of international relations of Uzbek theaters during the years of independence. The author, relying on scientific data, studied and analyzed the specific aspects of the international relations of the theaters of Uzbekistan during the years of independence based on the available literature.

Key words: Independence, Uzbekistan, theater, international relations.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek teatrining jahon teatrlari bilan hamkorlikda rivojlanmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek teatri namoyondalari Germaniya, Fransiya, Hindiston, AQSh, Belgiya, Misr kabi davlatlarda bo‘lgan nufuzli festivallarda qatnashdilar. O‘zbek rejissorlari va aktyorlarini boshqa mamlakatlarga taklif qilish ham odat tusini olgan. Qozog‘iston, Tojikiston, AQShdan kelgan rejissorlar teatrlarimiz sahnasidan spektakllar sahnalashtirmoqdalar. Ispaniyalik va amerikalik san‘at ustalari operalarda dirjorlik qilmoqdalar. O‘zbekistonlik rejissorlar esa Fransiya, AQSh, Izroil, Rossiya teatr sahnalarida o‘z sahna ko‘rinishlarini namoyish qilganlar. Bunga oid masalalar ko‘p bo‘lmasa-da ular ravnaq topib bormoqda natijalar esa bunday ijodiy aloqalarni samarali ekanidan dalolat beradi.

1993-yilgi “Navro‘z” festivali doirasi yanada kengaydi. Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Tatariston va boshqa xorijiy davlatlardan kelgan teatr jamoalari 23 ta spektaklni ko‘rsatdilar. Ushbu festivalda besh yil ichida birinchi marotaba O‘zbekiston teatr san‘ati sha‘nini Berdah nomidagi Qoraqalpoq Davlat musiqali drama teatrining “Shahriyor” (K.Matmurotov asari. rejissyor J.Sultabayev) spektakli bilan himoya qildi[1].

Xalqaro aloqalarni rivojlantirishda O‘zbekiston Yoshlari teatrining faoliyati ibratli bo‘ldi. 1995-yil 4-sentabrda O‘zbekiston –Gruziya hukumatlari o‘rtasida fan, madaniyat va ijtimoiy sohalarida hamkorlik to‘g‘risidagi Bitimiga asosan 2000-yil 26-mart – 26-may kunlari bo‘lib o‘tgan “Xumo” yoshlar teatrining 2 – festivalida Gruziyaning Poti shahri V.Guniya nomidagi Davlat drama teatri jamoasi ham ishtirok etdi[2].

1997-yil Hamza nomidagi O‘zbek davlat akademik drama teatri 85 yillik ijodiy faoliyati davomida ilk bor

“Chimildiq” spektakli bilan Qohiraga safar qilgan bo‘lsa, “Qirmizi olma” spektakli bilan Istambulda xalqaro festivalda qatnashdilar[3].

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1998-yil 26-mart “O‘zbekiston teatr san‘atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni[4] san‘atkorlarni xorijiy mamlakatlarda o‘tkaziladigan qator xalqaro teatr festivallarda ishtirok etishlariga har tomonlama sharoit yaratdi. O‘zbekiston teatr ustalari xorij mamlakatlarida o‘tkazilgan xalqaro festivallarda, ko‘rik tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, milliy madaniyat yutuqlarini keng targ‘ib qilishda dasturamal bo‘ldi.

Ayni paytda Amir Temur nomi uzoq vaqt tilga olinmay yoki tarixda yovuz siymo sifatida ko‘rsatib kelingan tufayli Qarshi shahar “Eski machit” teatr-studiyasi 1999-yil aprel oyida Qirg‘iziston Respublikasining Bishkek shahrida o‘tkazilgan “Aytmatov va teatr” nomli xalqaro festivalda “Nayman ona nidosi” spektakli bilan qatnashib, gran-pri sovriniga sazovor bo‘ldi.

2000-yilning 27-martidan boshlab “Xalqaro teatr kuni” munosabati bilan har yili respublika teatr jamoalari rag‘batlantirib borildi. Shu yilning o‘zida “Yilning eng yaxshi spektakli” sovrini uchun drama, musiqali teatr va bolalar teatri yo‘nalishlari bo‘yicha g‘oliblar aniqlangan[5].

O‘zbekiston Yoshlari teatrining 2002-yilda Isroil davlatining Hayfa shahrida, Rossiyaning Rostov-Don shahrida, Germaniyaning Drezden shahrida uyushtirgan gastrollari bo‘lsa teatr arboblarning ijobiy bahosini oldi. O‘zbekiston Yoshlari teatri Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida 2003-yilning mart oyida o‘tkazilgan an‘anaviy Xalqaro festivalda “Xolstomer” spektakli bilan ishtirok etib,

mutaxassislar va tomoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olindi.

Teatr sohasidagi halqaro hamkorlik masalalari 2004-yilda O'zbekiston Yoshlari teatri Sankt-Peterburgda o'tgan "Boltiqliq uyi" teatr festivalida Gotssining "Malikai Turondot" asari bilan muvaffaqiyatli qatnashdi. Yosh tomoshabinlar teatrida esa Italiyaning O'zbekistondagi elchixonasi va O'zbekistondagi Jahon tillari universiteti bilan hamkorlikda talabalar ijrosida nemis, rus, o'zbek tillarida "Pinokkio" spektakli namoyish etildi. Rejissor O.Salimov Muxtor Avezov nomidagi Qozog'iston teatrida Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshomda" asarini sahnalashtirdi. Almatidagi Uyg'ur musiqali drama teatri Toshkentda Milliy teatr sahnasida "Anorxon" spektaklini namoyish etdi.

2006-yilda o'tkazilgan birinchi festivalda O'zbek Akademik drama teatri "Qirmizi olma" spektakli bilan ishtirok etdi. Ikkinchi marotaba bo'lib o'tgan bu festivalda respublika teatrlari nomidan Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama teatri "Kampir topaymi, dadajon" nomli spektakl bilan ishtirok etib, festivalning ikkita nufuzli mukofotiga sazovor bo'ldi. O'zbekiston xalq artisti Yorqinoy Hatamova "Eng yaxshi roli ijrosi uchun", yosh aktyor Murod Xalilov "Eng yaxshi epizodik rol ijrosi uchun" nominatsiyalari bilan taqdirlandi.

Surxondarayo teatri "O'lding aziz bo'lding" (qayta nomlangan nomi "Qaysar cholning qiligi") spektakli bilan 2007-yilda Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahrida o'tkazilgan "Navro'z-2007" akademik teatrlarining Xalqaro festivalida, 2008-yilning 10-20 oktabr kunlari Misr arab Respublikasining Qohira shahrida bo'lib o'tgan XX – Xalqaro eksperimental teatrlar festivalida qatnashib, munosib o'rinlarni qo'lga kiritdi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek Milliy akademik drama teatrlarining Germaniya Federativ Respublikasi elchixonasi, Fridrix Nauman fondi homiyligida sahnalashtirilgan "Donishmand Natan" spektaklini 11-15-iyunda Termiz va Qarshi shaharlarida namoyib etishi, ijodiy uchrashuvlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qozog'iston Respublikasining Almati shahrida 2008-yilning 2-6-sentabr kunlari o'tkazilgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining II Xalqaro teatr san'ati festivalida Farg'ona viloyat teatri jamoasi "Kampir topaymi, dadajon?" (X.Xursandov) spektakli bilan qatnashib, o'zbek milliy teatr san'atini katta muvaffaqiyat bilan namoyish etdi[6].

2010-yilda Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlarining Xalqaro teatrlar festivalida ishtirok etib, 3 o'rinni egalladi. O'zbekiston xalq artisti G.Ravshanova "Eng yaxshi ayol", Y.Mirqurbonov "Eng yaxshi erkak roli" nominatsiyalari g'olibi bo'ldilar[7].

2010-yildan teatrlarda davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi asarlarni sahnalashtirish, yoshlarning ma'naviy dunyosini mustahkamlaydigan, oriyatini kuchaytiradigan, ibrat bo'ladigan zamonaviy qahramon obrazini yaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi[8]. Bu borada teatrlarda amaliy ishlar qilindi. Ayniqsa, "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa jamoat tashkilotlarining tashabbusi bilan 2011-yil may oyida "Seni kuylaymiz, zamondosh" O'zbekiston teatrlarining I-Respublika tanlovi bo'lib o'tdi[9]. Festivalga tayyorgarlik jarayonida dramaturglar tomonidan zamon qahramoni obrazi ko'rsatilgan qator yangi pyesalar yaratildi. Ular jumlasiga mamlakatda bo'layotgan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan "Ezgulik yo'lida" (SH.Rizayev asari), fidoyi meditsina xodimlari haqidagi "Oq xalatlilar farishtalar" (F.Bobojonova asari), yangi paxta navini ixtiro etgan yoshlarga bag'ishlangan "Bahor shamoli" (N.Abbosxon asari), oddiy zavod ishchilari

hayoti yoritilgan "Boshqacha odamlar" (O.Xakimov, S.Odilov asari) kabi dramatik asarlarni kiritish mumkin[10].

Yuqorida keltirilgan ko'rik tanlovning 2013-yilgi II-Respublika bosqichiga jami teatrlaridan 30 dan ortiq sahna asarlari tavsiya qilingan. Ular orasidan 15 ta asar tanlab olingan. Ushbu sahna asarlarida jamiyatning turli ijtimoiy tabaqasiga mansub shaxslarning hayoti zamon qahramonlari obrazlari sifatida tanlangan. Jumladan, zamonaviy ayol qiyofasini yaratishga ham alohida ahamiyat qaratildi. Shunday asarlar sirasiga Qo'chqor Norqobilning «Quyoshni sen uyg'otasan» nomli spektaklini kiritish mumkin[11].

Tahlil va natijalar. 2014-yilda respublika teatr ijodkorlarining xalqaro tanlov va festivallardagi ishtiroki kengaygan. Masalan, Koreya Respublikasining Seul shahrida o'tkazilgan ASSITEJ-2014 Osiyo uchrashuvlari festivalida O'zbekiston Yoshlar teatri jamoasi o'zining "Ozornik" ("Shum bola") spektakli bilan qatnashib, tanlov hay'ati va tomoshabinlarda ijobiy taassurot uyg'otgan[12]. Bundan tashqari, Turkmaniston Respublikasining Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan "Teatr san'ati – baxtli zamonda" ("Teatralnoye iskusstvo v epoxe schasty") deb nomlangan II Xalqaro teatrlar festivalida Berdaq nomidagi musiqali drama teatri jamoasi "Eng suluv kelinchak" (S.Balg'abayev asari) bilan ishtirok etgan[13].

O'zbekiston teatrlarining ko'rik – festivali 2011-yildan beri o'tkazib kelinib, zamon qahramonlarini sahnaga olib chiqishda yaxshi bir an'anib qolgan bo'lib, bu festival o'z ishini davom ettirib bordi. Har ikki yilda tashkil etiladigan mazkur festival 2017-yilga qadar 40 ga yaqin spektakllarni tomoshabinlarga taqdim etdi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish borasidagi tadbirlari qatorida 2018-yilda Qozog'istonda O'zbekiston yili nishonlanishi bo'ldi. Qozog'istonda "2018-yil – O'zbekiston yili" dasturi munosabati bilan madaniyat, san'at, adabiyot sohaslarida bajarilishi rejalashtirilayotgan bir qator madaniy - ma'rifiy tadbirlar, xayrli ishlar haqida ham to'xtalib o'tish o'rinli. 2018-yilning birinchi choragida Ostona shahrida Ostona shahrida o'zbek hunarmandchi-ligining 400 dan ortiq mahsulotini aks ettirgan ko'rgazma namoyish etildi[14].

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi hamda keng jamoatchilik ishtirokida 2019-yil 10-15-iyun kunlari Nukus shahrida "Seni kuylaymiz, zamondosh!" O'zbekiston teatrlarining V Respublika ko'rik – festivali katta bayram sifatida o'tkazildi[15]. Bu festival ham bugungi serqirra, tezkor hayotdan andoza olgan spektakllarga boy bo'ldi.

2019-yil 5-yanvarda "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni ijrosi yuzasidan Qashqadaryo viloyati hokimligi va madaniyat boshqarmasi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Rossiyaning Samara viloyati "U-RA" turizm va madaniy dam olish markazi taklifiga inoan Xlaqaro Etnografik tarixiy mavzudagi "Rus Epoxi obyedineniya" festivali doirasida ushbu markaz va Qashqadaryo viloyati hokimi Z.Ro'ziyev o'rtasida muzeylar va turizmni rivojlantirish masalalarida o'zaro Memorandum imzolandi.

Umuman, yangi O'zbekiston sharoitida teatr san'ati sohasida ijodiy yutuqlar qo'lga kiritilganligini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-600 son Farmoni o'zbek milliy san'atini jahon maydoniga olib chiqishda, jahon teatr san'atidagi noyob durdona asarlarni mahalliy teatrlari sahnalarida namoyish etish uchun qulay imkoniyat yaratganligini alohida ta'kidlash lozim.

Bu soha mutaxassisligidagi taxsil olayotgan talabalar orasidagi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Xulosalar. Xulosa qilib aytganda, yangi tarixiy sharoitda teatr san'ati zimmasiga yuklangan mustaqillik g'oyasini omma orasida targ'ib qilish, ajdodlar yaratgan ma'naviy merosning, o'ziga xos noyob madaniyatining vorisi

ekanligini anglashga yordam berish, ushbu boylikni asrash va umuminsoniy qadriyatlar, jahon taraqqiyoti yutuqlari asosida ko'paytirishga ko'maklashish, yosh avlodni munosib, qat'iy iroda va e'tiqodga ega kishilar qilib tarbiyalash kabi vazifalarni bajarishda Madaniyat vazirligi va teatrlar ijodiy jamoalari samarali mehnat qildilar.

ADABIYOTLAR

1. Фиолетова Н. Ашгабат встречает друзей // Народное слово. 1993 года, 27 марта.
2. O'zMA M-38, ro'yhat – 1, yig'ma jild – 156, 147 - varaq.
3. San'atshunoslik fanlari doktori, UzDSMI professori Muxabbat To'laxo'jayeva bilan qilingan suhbatdan. Suhbat 2016 yil 29 yanvarda yozib olingan.
4. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1998 yil 26 martdagi PF-1980-sonli "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 4-son, 61-modda.
5. 27 mart – Xalqaro teatr kuni // Teatr. – 2000. – №2. – B. 4.
6. Sayfullayev N. Mustaqillik davri O'zbekiston teatr san'ati tarixi. Tarix fanlari doktorlik dissertatsiyasi. –T., 2022. – B.114.
7. Tursunov T. Sahna va zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 336 bet.
8. Choriyeva D. "O'zbekistonda madaniyat sohasi boshqaruv tizimi tarixi (Madaniyat vazirligi faoliyati misolida, 1991-2016 yy.)". Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktorlik diss... –T., -B.103.
9. "Seni kuylaymiz, zamondosh!" O'zbekiston teatrlarining respublika tanlovi 2011 yildan boshlab har ikki yilda bir marta o'tkaziladi.
10. Fazilova M. Dramaturgiyada zamondosh qahramon obrazi // Sharq yulduzi. – 2015. – №2. – B. 166.
11. Asar 2015-yilda rejissor V.Umarov tomonidan O'zbek Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan.
12. Choriyeva D. "O'zbekistonda madaniyat sohasi boshqaruv tizimi tarixi (Madaniyat vazirligi faoliyati misolida, 1991-2016 yy.)". Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktorlik diss... –T., -B.107.
13. Umarov V. Mavsumdan so'ng. Sarhisob rukni // Teatr. – 2015. – №1. – B. 2-3.
14. Sayfullayev D. O'zbekiston Respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixi (1991-2019). ... – 136 bet.
15. Seni kuylaymiz, zamondosh // Teatr adabiy-badiiy, axborot - reklama jurnali. 2019/3. – 2 bet.



UDK: 577.45

Behruz SAYFULLAYEV,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiya universiteti katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: sayfullayev.behruz@mail.ru

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiya universiteti dotsenti, t.f.n B.Mahmudov taqrizi asosida

LEGAL ELEMENTS OF ESTABLISHING DISTRIBUTIONAL RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND INDIA

Annotation

This article, based on the principle of historicity, examines the establishment of diplomatic relations with India, considered one of Uzbekistan's strategic partners in international relations, and their legal basis. The prospects for the development of bilateral relations between the countries were also analyzed.

Key words: International relations, Uzbekistan, India, bilateral relations, multilateral relations, diplomacy, legal framework.

ПРАВОВЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ УСТАНОВЛЕНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ИНДИЕЙ

Аннотация

В данной статье на основе принципа историчности исследуются установление дипломатических отношений с Индией, считающейся одним из стратегических партнеров Узбекистана в международных отношениях, и их правовая основа. Также были проанализированы перспективы развития двусторонних отношений между странами.

Ключевые слова: Международные отношения, Узбекистан, Индия, двусторонние отношения, многосторонние отношения, дипломатия, правовая основа.

O‘ZBEKISTON VA HINDISTON O‘RTASIDA DIPLOMATIK ALOQALAR O‘RNATILISHINING HUQUQIY ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada O‘zbekistonning xalqaro munosabatlardagi strategik hamkorlaridan hisoblangan Hindiston bilan diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi va ularning huquqiy asoslari tarixiylik tamoyili asosidada tadqiq etilgan. Shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning rivojlantirish istiqbollari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro munosabatlar, O‘zbekiston, Hindiston, ikki tomonlama aloqalar, ko‘p tomonlama aloqalar, diplomatiya, huquqiy asos.

Kirish. O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarga mustaqil subyekt sifatida kirib borishi hamda ko‘plab huquqiy-normativ hujjatlarni ratifikatsiya qilishi ichki iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta‘sir etishi barobarida, sezilarli ravishda respublikaning jahondagi obro‘-e‘tiborini oshib borishini ta‘minlamoqda.

Bu jarayonda O‘zbekiston-Hindiston munosabatlari ko‘p asrlik tarixga asoslangan yuqori barqaror hamkorlik aloqalari bilan ajralib turadi. Hindiston qadimdan O‘zbekistonda boy tarix va betakror madaniyatga ega mamlakat sifatida yaxshi tanilgan, o‘zbek xalqi bilan ko‘p asrlik madaniy, savdo-iqtisodiy aloqalar, eng avvalo, samimiy do‘stlik rishtalari bilan bog‘langan mamlakatdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlatlar o‘rtasidagi strategik hamkorlikning rivojlanib borishida davlat rahbarlari va hukumatlarning rasmiy tashriflarida imzolangan shartnomalar va bitimlar munosabatlarni mustahkamlovchi huquqiy asos hisoblanadi. Xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalari asosida davlatlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning qaror topib borishi do‘stona aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishida mustahkam mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston va Hindiston Respublikalari diplomatik aloqalarining 1991–2021- yillarda rivojlanishini ikki bosqichga bo‘lib tahlil qilish mumkin: birinchi bosqich 1991–2016-yillarni, ikkinchi bosqich esa 2017–2021-yillarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining qaror topishi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti

I.Karimovning 1991-yil 17-19-avgust kunlari Hindiston Respublikasining vitse-prezidenti Shankar Dayal Sharmaning taklifiga binoan qilgan rasmiy tashrifidan boshlanadi. Bu O‘zbekiston Prezidentining xorijga qilgan birinchi mustaqil, tarixiy tashrifi edi.

Tahlil va natijalar. Islom Karimov shu tashrifi davomida hind muxbirlariga bergan intervyusida: “Bizning Hindistonga kelishimiz, avvalo, o‘zbek xalqining qadimgi ma‘rifatiga, ko‘p asrlik tarixiga va juda boy madaniyatiga ega bo‘lgan hind xalqiga ulkan ehtiromining namoyon bo‘lishini bildiradi. O‘zbek xalqi o‘zining buyuk qo‘shnisi bilan mustahkam aloqalar o‘rnatishga intilmoqda. Tariximiz mushtarakligi, madaniyatimiz yaqinligi, xalqlarimizning ko‘p asrlik aloqalari shunday mustahkam poydevordirki, unda biz Hindiston Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida yangi munosabatlarni ko‘rishimiz mumkin”[1], – deb ta‘kidlagan edi.

Islom Karimov Hindiston bosh vaziri Narasixa Rao, Hindiston vitse-prezidenti Shankar Dayal Sharma bilan muzokaralarda quyidagi ikkita asosiy hujjatlar: birinchisi, “Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikka doir” bitim, ikkinchisi, “Madaniyat, san‘at, ta‘lim, ilm-fan, sayyohlik, sport va ommaviy axborot vositalari sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi shartnoma imzolandi [2]. Ushbu hujjatlarning imzolanishi natijasida O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar boshlanganligining siyosiy-huquqiy hamda ma‘naviy asosini yaratdi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng 1991-yil 26- dekabrda Hindiston birinchilar qatorida

O'zbekistonning suverenitetini e'tirof etib, 1992-yil 18-mart kuni Toshkentda ikki mamlakat o'rtasida elchixonalar darajasida diplomatik munosabatlar o'rnatish haqidagi Protokoll imzolandi [3]. 1992-yilning sentabrida Dehlida O'zbekiston Respublikasining konsulxonasi ochilib, 1994-yili u elchixonaga aylantirildi. Bundan avvalroq 1987-yil 7-aprelda Toshkentda ochilgan Hindiston Bosh konsulligi ham 1992-yili elchixonaga maqomini olgan edi [4]. Shuningdek, Dehlida 1993-yil yanvar oyida «O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasining bo'limi ham ochildi.

O'zbekiston mustaqilligining Hindiston davlati tomonidan tan olinishi bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni faollashtirish, uni huquqiy asosini yaratish uchun rasmiy tashriflar amalga oshirila boshladi. O'zbekistonga 1992-yilning o'zida uch marotaba, jumladan, shu yil yanvarda Hindiston bosh vazirining maxsus vakili R.Mirdxa, iyun oyida L.Punapa va 8–12- oktabrida R.L.Bxatiya boshchiliklarida Hindiston tashqi ishlar vazirligi delegatsiyalari O'zbekistonga keldi. Uchrashuv davomida, O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi hukumatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya tuzish to'g'risida bitim imzolandi.

Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatilgan vaqtdan boshlab, munosabatlar dinamikasining o'sib borish tendensiyasi kuzatilganligini kuzatish mumkin. Masalan, hamkorlik ko'lamini kengaytirish maqsadida 1993-yil 23-25-may kunlari Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Jumladan, Bosh vazir O'zbekistondagi tarixiy tashrif to'g'risida: "O'zbekiston va Hindiston xalqlari o'rtasida umumiy jihatlarda juda ko'p. Tariximiz va taqdirimizda tutash nuqtalar anchagina, O'zbekiston yangi jamiyat barpo etish yo'lida murakkab o'tish davrini boshdan kechirmoqda. Hindiston bu borada O'zbekistonga yaqindan yordam beradi va uni har tomonlama qo'llab quvvatlaydi. Ikki do'st mamlakat munosabatlari mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi", – deya ta'kidlagan edi [5].

Muzokaralar davomida hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi kelishuvlar, jumladan, "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida" shartnoma, "Foyda va mulkka ikki yoqlama soliq solmaslik to'g'risida", "Havo yo'llari to'g'risida", "Savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida" bitim, "Sayyohlik, fan-texnika va madaniy sohalarida hamkorlik to'g'risida" ahdlashuv, "Osiyo qit'asida terrorizm va giyohvand moddalarni tarqatishga qarshi birgalikda qarshi kurashish", iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida "Savdo iqtisodiy komissiya tashkil etish to'g'risida"gi bitimlar imzolandi. Shu bilan birga, O'zbekistonda ham hindshunoslikni rivojlantirish maqsadida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida "Hindiston kafedresi" tashkil qilindi.

Davlatlar o'rtasida imzolangan shartnoma va kelishuvlardan ko'rish mumkinki, ikki tomonlama aloqalarda yangi yo'nalishlarga asos solingan. O'zaro kelishuvlarning natijasida birinchi navbatda iqtisodiy sohada 1991–1993-yillarda O'zbekistonda "Sovindelektronik", "Yuniteks interneyshnal", "Inturtaj" kabi 13 ta o'zbek–hind qo'shma korxonasi faoliyati yo'lga qo'yilib, bu ko'rsatkich yillar davomida oshib bordi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan I.Karimov 1994-yil 3-5-yanvar kunlari Hindistonda bo'ldi. Ikki davlat rahbarining uchrashuvi davomida O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi savdo, iqtisodiy va texnik hamkorlikni yanada kengaytirishdan o'zaro manfaatdorlik bildirildi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Hindiston Bosh vaziri

Narasimxa Raolar tomonidan "Iqtisodiy hamkorlik tamoyillari va uning yanada kengaytirilishi to'g'risida", "Ilm-fan va texnika, madaniyat, pochta aloqasi, telekommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida", "Qo'shma O'zbekiston-Hindiston bankini tashkil etish to'g'risida", shuningdek, "Toshkentda hind madaniy markazini tashkil etish bo'yicha hamkorlik to'g'risida" bitimlar imzolandi. Imzolangan har bir bitim mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining aniq bir yo'nalishida yaqin aloqalar o'rnatish uchun mustahkam huquqiy asosni yaratdi.

O'zbekiston–Hindiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning rivojlanishida tashqi ishlar vazirliklararo siyosiy maslahatlashuvlar muhim ahamiyat kasb etib, bunday uchrashuvlar 1997-yil avgust oyidan beri muntazam ravishda o'tkazib kelinadi. Jumladan, 1999-yil 18-20-mart kunlari Hindiston tashqi ishlar vaziri J.Sinx O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. Uchrashuv davomida "Investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risida"gi hukumatlararo bitim imzolandi [6]. Umuman olganda, 2000-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida diplomatik aloqalar natijasida munosabatlarning huquqiy asosi sifatida o'ttizta hujjat imzolandi.

2000-yil 1-3-may kunlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Hindistonga navbatdagi rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Tadqiqotlar tahlilida Islom Karimovning Hindistonga bu galgi tashrifida xavfsizlik borasida hamkorlikka alohida e'tibor qaratilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqaro terrorizm va ekstremizm nafaqat Markaziy Osiyo, balki boshqa mintaqalar mamlakatlarining tinchlik va barqarorligiga tahdid solayotgani, bunday xavf va tahdidlarga qarshi hamkorlikda kurashish Hindiston va O'zbekiston uchun dolzarb masala ekanligi davlat rahbarlari tomonidan alohida ta'kidlandi [7].

Muzokaralar yakunida do'stona aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida hamkorlik tamoyillari to'g'risida deklaratsiya" qabul qilindi. Deklaratsiya quyidagi jumlar: "Hindiston va O'zbekiston BMTning mustaqillik va suverenitet, hududiy yaxlitlik va ichki ishlarga aralashmaslik to'g'risidagi nizom asosida hamkorlikni rivojlantiradi" –deb boshlanadi. Mazkur hujjatning muhim jihati shundan iboratki, unda "Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonani barpo etilishi milliy, mintaqaviy va dunyo xavfsizlik talablariga javob berishi, Hindiston mazkur mintaqaning bunday maqomini hurmat qilishi va e'tirof etishi", – alohida qayd etildi.

Xavfsizlikni ta'minlash yo'lida ikki mamlakat huquqni muhofaza qiluvchi organlarining terrorchilik, uyushgan jinoyatchilik borasidagi hamkorlik bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida jinoiy ishlar yuzasidan o'zaro huquqiy yordam hamda ekstraditsiya (jinoyatchilarni topshirish) to'g'risida" shartnoma imzolandi. Mazkur Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 31-avgustdagi 126-II-sonli "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida jinoiy ishlar yuzasidan o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish haqida"gi Qarori bilan ratifikatsiya qilinib, O'zbekiston hududida 2001-yil 17-apreldan kuchga kirdi.

Bojxona qonunchiligi buzilish holatlarining oldini olish bo'yicha O'zbekiston davlat bojxona qo'mitasi va Hindiston moliya vazirligi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida ularning bojxona organlariga o'zaro ko'maklashish to'g'risida"gi bitim imzolandi. Mazkur Bitim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrda 423-sonli "Hukumatlararo bitimlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

bilan tasdiqlanib, 2002-yil 6-yanvardan kuchga kirdi (14 moddadan iborat) [8].

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida hamkorlik to'g'risi" da bayonnoma, "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi bilan Hindiston Sanoat konfederatsiyasi o'rtasida hamjihatlik va hamkorlik to'g'risida memorandum", "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida Kredit bitimi", "O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida axborot va ommaviy axborot vositalari sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bayonnoma", "O'zbekiston milliy axborot agentligi bilan Hindistonning "Press Trast of India" axborot mahkamasi o'rtasida kasbiy hamkorlik to'g'risida" bitimlar imzolangan bo'lib, ular o'zaro munosabatlarning kelgusida yana rivojlanishida mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan.

O'z navbatida, O'zbekiston Prezidentining ushbu tashrifidan so'ng 2005- yilgacha ikki mamlakat munosabatlari kontekstida tashqi ishlar vazirlarining rasmiy uchrashuvlari ham bo'lib o'tdi. Jumladan, 2003-yil noyabr oyida Hindiston tashqi ishlar vaziri Shri Yashvant Sinxa Toshkentda "Hindiston–Markaziy Osiyo" uchinchi konferensiyasida qatnashish maqsadida tashrif buyurdi. Xalqaro sammit doirasida O'zbekiston–Hindiston tashqi ishlar vazirlarining alohida muzokaralari ham bo'lib, uchrashuv yakunida "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Hindiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Diplomatik xizmat instituti o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida anglashuv memorandumi" imzolandi.

Diplomatik munosabatlarni rivojlantirishda navbatdagi muhim qadam O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005-yil aprel oyida Hindistonga amalga oshirgan davlat tashrifi bo'ldi. Davlat rahbari Hindiston Prezidenti Abdul Qalam va Bosh vazir Manmohan Singx bilan ikki mamlakat hamkorligini yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiluvchi sohalar, jumladan, kichik biznes va tadbirkorlik, ta'lim, mudofaa, savdo, moliya, turizm bo'yicha muzokaralar olib bordi. Bu hamkorlik ikki davlatning uzoq istiqboldagi milliy manfaatlariga mos bo'lib, o'zaro aloqalarning yanada mustahkamlanishiga, jahon miqyosida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Muzokaralar yakunida ikki davlat o'rtasida "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan Hindiston Respublikasi Mudofaa vazirligi o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy sohalarida hamkorlik to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Hindiston Respublikasi Hukumati o'rtasida kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohasida hamkorlik to'g'risida"gi bitimlar ham imzolandi.

Diplomatik munosabatlarning rivojlanib borishida Hindiston Bosh vaziri Manmohan Singhning 2006-yil aprel oyida O'zbekistonga rasmiy tashrifi katta rol o'ynadi. Bu 1993-yildan so'ng ikkinchi marotaba Hindiston bosh vazirining O'zbekistonga kelishi edi. Ushbu uchrashuvda, ikkala mamlakat ham davlatlararo muomalaning umumiy tamoyillariga, barcha kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal qilishga va har qanday shaklda ekstremizmdan voz kechishga hamda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipiga amal qilishi yana bir bor tasdiqlandi [10].

Muzokaralar yakunida Qo'shma bayonot qabul qilinib, ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida "Tadbirkorlikni rivojlantirish markazini tashkil etish to'g'risida" memorandumi, "O'zbekneftgaz milliy xolding kompaniyasi bilan Hindiston neft-gaz sanoati vazirligi o'rtasida hamkorlik to'g'risida" memorandumi, O'zbekiston geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi bilan Hindiston tog'-kon sanoati vazirligi o'rtasida "Geologiya va mineral resurslar sohasida

hamkorlik to'g'risida" anglashuv memorandumi, "Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti bilan Dehli universiteti o'rtasida anglashuv memorandumlari" imzolandi. Imzolangan shartnomalar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining aniq bir yo'nalishida aloqalar o'rnatish uchun mustahkam huquqiy asosni yaratdi.

O'zaro muzokaralarning natijasiga ko'ra, 2009-yilgacha ikki davlat o'rtasida 60 dan ortiq rasmiy hujjatlar imzolandi. Diplomatik munosabatlarda kelishilgan iqtisodiy bitimlarning natijasi sifatida O'zbekistonning Davlat investitsiya dasturiga muvofiq, 2007-2010-yillarda 4 loyihaga Hindistondan 33,5 million dollar miqdorida sarmoya jalb etilib, to'qimachilik tarmog'ida Hindistonning "Spentex Industries" kompaniyasining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyasi ishtirokida umumiy qiymati 143,78 million dollarlik ikkita loyiha amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2011- yilning may oyida Hindiston Respublikasiga davlat tashrifi diplomatik aloqalarni strategik sheriklik darajasiga ko'tarishda muhim omil bo'ldi. O'tkazilgan muzokaralar va imzolangan hujjatlar diplomatik munosabatlarning, hamkorlikning barcha yo'nalishlarida uzoq muddatga mo'ljallangan strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan yangi bosqich uchun mustahkam zamin bo'lgan edi. Ikki tomonlama munosabatlar tenglik va o'zaro anglashuv tamoyillari asosidagi uzoq muddatli strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Uchrashuv davomida tomonlar axborot texnologiyalari, farmasevtika, standartlashtirish, neft va gaz, fan texnologiyalari, to'qimachilik va bank ishi kabi qator sohalarida hamkorlik qilish to'g'risida 34 ta ikki tomonlama hujjatlar, shu jumladan, O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro strategik sherikchilik to'g'risida qo'shma bayonot imzolanishi strategik sheriklik bilan alohida ajralib turuvchi o'zaro aloqalarning yangi bosqichi uchun ishonchli zamin bo'ldi.

Hindistonning amaldagi bosh vaziri N.Modining 2015-yildagi O'zbekistonga qilgan birinchi rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasida tarixan shakllangan do'stona munosabatlarni rivojlantirish va bu boradagi huquqiy asoslarni mustahkamlashdagi yangi bosqich bo'ldi. N.Modining Markaziy Osiyo va Rossiyaga amalga oshirishi rejalashtirilgan sakkiz kunlik uchrashuvlarning dastlabki davlati O'zbekiston bo'ldi (2015-yil, 6-iyul). Tashrif chog'ida bosh vazir Narendra Modi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov bilan ikki tomonlama va mintaqaviy masalalar, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha muzokaralar olib bordi. Natijada ikki mamlakat tashqi idoralari 2015-2017-yillarga mo'ljallangan madaniy hamkorlik, O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o'rtasida turizm sohasida hamkorlik to'g'risidagi shartnomalarni imzoladilar. Bosh vazir O'zbekiston Prezidenti bilan bo'lib o'tgan keng doiradagi muzokaralarni juda samarali, – deya ta'kidlab, O'zbekiston Prezidentiga Amir Xusrav tomonidan fors tilida tayyorlangan, oltin ranglar bilan bezatilgan "Xamsa-i-Xusrav"ning nusxasini taqdim etgan edi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili asosida xulosa qilib aytganda, O'zbekiston–Hindiston aloqalarining birinchi bosqichida (1991-2016 yillar) ikki tomonlama munosabatlar evolyutsiyasida barcha yo'nalishlar rivojlanib borganligini ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab, 2016-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida: Hindistonga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining besh marta (1991, 1994, 2000, 2005, 2011 yillarda), O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining to'rt (1996, 2003, 2004, 2017-yillarda), shuningdek, O'zbekistonga Hindiston Bosh vazirlarining to'rt (1993, 2006, 2015, 2016-yillarda) hamda Hindiston Tashqi ishlar

vazirining yetti marta (1996, 1999, 2003, 2009, 2010, 2013, 2018-yillarda) rasmiy tashriflari amalga oshirilgan.

Xulosa qilib aytganda, ikki davlat o'rtasida amalga oshirilgan rasmiy uchrashuvlar doirasida, birinchidan, O'zbekiston-Hindiston siyosiy muloqotining muntazam ravishda olib borilishi va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, O'zbekiston bilan Hindiston davlat tuzilmalari va ishbilarmonlari doiralari o'zaro tovarlar yetkazib berish hamda xizmat ko'rsatishni yanada faollashtirish va diversifikatsiya qilishdan, iqtisodiyotning axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar,

farmasevtika va biotexnologiyalar, kimyo va yengil sanoat, shuningdek, uglevodorodlar xom ashyosini o'rganish va o'zlashtirish kabi yuqori texnologiyali tarmoqlarda o'zaro foydali qo'shma ishlab chiqarish obyektlarini barpo etishdan manfaatdor ekanliklari qayd qilindi.

Umuman olganda, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, diniy ekstremizmning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish, xalqaro terrorizm va narkobiznes kabi xalqaro munosabatlardagi muammolarni bartaraf etish borasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish har ikki mamlakat uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. ЎзМА, М-37-фонд, 1-рўйхат, 1775-йиғма жилд, 36-варақ.
2. ЎзМА, М-37-фонд, 2-рўйхат, 84-йиғма жилд, 64-варақ.
3. Mavlanov I. Uzbekistan-India relations– a basis of new inter-regional cooperation / Himalayan and Central Asian Studies; New Delhi Том 16, Изд. 3/4, (Jul-Dec 2012). – P. 144-158.
4. Mamatqulova D. Prospects for the development of priority areas of Uzbek-Indian cooperation. <http://www.isrs.uz/en/maqolalar/uzbekiston-indiston-amkorligidagi-ustuvor-junalislami-rivozlantiris-istikbollari>. Accessed 19.06. 2021.
5. Тошкентдаги халқлар дўстлиги саройида мухбирлар билан суҳбат. Ўзбекистон қалбимдан қатта жой эгаллади // Халқ сўзи, 1993 йил 26 май.
6. Prakash Sh. India-Uzbekistan relations during the 1990's and future prospects//Materials of the IS(21-22 November 2001)-//J.Nehru University-New Dehli.2001. – P.64-66.
7. Khaydarov A. The Changing Geopolitics of Central Asia and Contemporary Uzbek-Indian Relations / Contemporary Indo-Uzbek Perspectives on Bilateral and Regional Issues. Nyu-Delhi, 2009. – P. 30-31.
8. Ўзбекистон Республикаси ҳукумати билан Ҳиндистон Республикаси ҳукумати ўртасида битим уларнинг божхона органларига ўзаро қўмаклашиш тўғрисида // <https://lex.uz/docs/2094781>. Accessed 19.05. 2021.
9. Omonov B. O'zbekiston – Hindiston: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari borasida istiqbolli hamkorlik // <http://www.zarnews.uz/uz/post/ozbekiston-hindiston-axborot-kommunikaciya-texnologiyalari-borasida-istiqbolli-hamkorlik>. Accessed 19.06. 2021.
10. Skand R. Tayal Indo-Uzbek relations: An Evolving Partnership / Contemporary Indo-Uzbek Perspectives on Bilateral and Regional Issues. Nyu-Delhi, 2009. – P. 1-10.



UDK: 94(57+47):382.2

Zamira TOIROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: zamiratoirova55@gmail.com

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Madaniyatshunoslik” kafedrasida mudiri A.Mamatjonov taqrizi asosida.

TOSHKENT IQTISODIY RAYONINING IQTISODIY GEOGRAFIK O‘RNI, TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada sovet hukumatining rayonlashtirish siyosati, tashkil etilgan Toshkent iqtisodiy rayoni, uning xususiyatlari, mamlakatdagi iqtisodiy-geografik o‘rni, tabiiy sharoiti, resurslari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Mavzuga oid manbalar va adabiyotlardan olingan aniq statistikalar iqtiboslar orqali yoritilgan. Rayon hududida tashkil etilgan sanoat turlari, irrigatsiya kanallari, sanoat shaharlari haqida ma’lumotlar uchraydi.

Kalit so‘zlar: Rayonlashtirish, Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni, Toshkent iqtisodiy rayoni, sanoat, yer osti boyliklar, suv omborlari, rangli metallurgiya, urbanizatsiya, Olmalik shahri, Chirchiq daryosi, sanoat ixtisoslashuvi.

ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ПРИРОДНЫЕ УСЛОВИЯ И РЕСУРСЫ ТАШКЕНТСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА

Аннотация

В данной статье представлена информация о политике советского правительства в области районирования, созданном Ташкентском экономическом районе, его особенностях, экономико-географическом положении в стране, природных условиях, ресурсах. Точная статистика, полученная из источников и литературы по этой теме, освещается в цитатах. Встречаются сведения о организованных на территории района видах промышленности, оросительных каналах, промышленных городах.

Ключевые слова: Зонирование, большой Среднеазиатский экономический район, Ташкентский экономический район, промышленность, недра, водохранилища, цветная металлургия, урбанизация, город Алмалык, река Чирчик, промышленная специализация.

ECONOMIC GEOGRAPHICAL POSITION, NATURAL CONDITIONS AND RESOURCES OF THE TASHKENT ECONOMIC REGION

Annotation

This article presents information about the zoning policy of the Soviet government, the established Tashkent economic region, its features, economic-geographical position in the country, natural conditions, resources. Specific statistics from thematic sources and literature are covered through quotes. Information about the types of industries established in the territory of the raion, irrigation canals, industrial cities are found.

Keywords: Zoning, Greater Central Asia Economic Region, Tashkent economic region, industry, underground wealth, reservoirs, non-ferrous metallurgy, urbanization, Olmalik city, Chirchiq River, industrial specialization.

Kirish. Bugungi kunda har bir soha rivojlanishiga katta e’tibor qaratilayotgan Yangi O‘zbekistonimizda tarixchilar zimmasiga vatanimiz tarixini har jabhasini chuqurroq o‘rganish, tegishli dallillar bilan ochib berishdek muhim vazifalar yuklatildi. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston taixining turli davr va sohalarini ilmiy asoslangan holda yoritib beradigan tadqiqotlarning ko‘payganligi quvonarlidir. Men ham o‘z ilmiy ishim bilan sovet davri rayonlashtirish siyosati, ayniqsa, Toshkent iqtisodiy rayonining tashkil etilishi va uning xususiyatlarini yoritishni o‘z oldimga maqsad qilib oldim.

Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng sovet hukumati mamlakat iqtisodiyotini o‘z iziga tushirish maqsadida har bir hududning sharoiti, mavjud resurslarini hisobga olgan holda rayonlarga bo‘lish siyosatini amalga oshirdi. Rayonlashtirish siyosatini o‘zida aks ettirgan davlat hujjatlari, arxiv ma’lumotlari va ilmiy tadqiqot ishlari talaygina. Ammo haligacha O‘zbekiston hududidagi har bir iqtisodiy rayoni, xususan, Toshkent iqtisodiy rayonini alohida yoritib beradigan ilmiy ish yaratish masalasi ochiqlicha qolmoqda. Bu yo‘nalish tadqiqotchiga oldiga quyidagicha vazifalar qo‘yadi: mazkur davrga oid rasmiy hujjatlar, arxiv hujjatlar, tarixiy manbalar va ayni mavzu doirasida yozilgan ilmiy

adabiyotlarni tahlil qilish, ularga xolisona yondashgan holda ikkinchi jahon urushidan so‘ng mamlakatda iqtisodiy rayonlashtirish siyosati, katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni va unda O‘zbekistonning, shuningdek, Toshkent iqtisodiy rayonining o‘rni, Toshkent iqtisodiy rayonida sanoat, qishloq xo‘jaligi, tabiiy sharoiti, uning ekologik vaziyatga ta’siri kabi masalalarni tadqiq etish kabilar.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili) masalasini O‘zbekistonda sovet davlatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosati Toshkent iqtisodiy raoyini misolida davriy va muammoviy tamoyillar asosida olib borish, bunda nashr etilgan adabiyotlar, tadqiqotlar hamda maqolalarni o‘rganib, tanqidiy tahlil qilib umumlashtirish orqali yoritish maqsadga muvofiqdir. Davriy tamoyilga ko‘ra, mavzuga oid manba va adabiyotlarni 2 guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

➤ Sovet davlati hukmronligi yillarida nashr etilgan maqola va adabiyotlar;

➤ Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar va tadqiqot ishlari.

1-guruhga Четыркин В.М. “Средняя Азия (Опыт комплексной географической характеристики и районирования)”, Костенников М.В. “Экономические

районы СССР”, Колосовский Н.Н. “Теория экономического районирования”, Зиядуллаев С. “Региональные проблемы экономики Узбекистана”, Муртазаева Р.Х. “Экономические основы развития национальных отношений в СССР” kabi qator adabiyotlarni misol qilish mumkin.

2-guruhga esa Бобожонова Х. “Ўзбекистонда ижтимоий – иқтисодий муносабатлар номли adabiyotlar”, Обломуродов Н. “Развитие аграрного производства Узбекистана в 1971-1990 гг. опыт, уроки и проблемы”, Юнусова Х. “Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века”, Мамткуллов А. “XX асрнинг 50-80 йилларида совет хокимиятининг Ўзбекистонда иқтисодий районлаштириш сиёсати (Самарқанд-Қарши иқтисодий райони мисолида)”, Юсупова Г. “Ўзбекистон ижтимоий – иқтисодий ҳаётида Фарғона иқтисодий районининг ўрни (XX асрнинг 50-80 йиллари)” kabi tadqiqot ishlari misol bo'la oladi.

Tanlangan mavzuning ba'zi jihatlari xorijiy adabiyotlarda ham tahlil etilgan bo'lib, bu asarlarda ittifoqdosh respublikalarning, Shu jumladan, O'zbekistonning, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tarixiga va ma'naviy hayotiga bag'ishlangan mavzularni qisman bo'lsada qamrab olib, ularning mazmuni va xulosalari yetarli darajada og'ir va qarama – qarshidir [1].

V.M. Kostennikovning yozishicha, SSSR Oliy Sovetining 1957-yil 10-maydagi farmoniga ko'ra butun mamlakat 104 ta iqtisodiy rayonlarga bo'lingan. Ulardan 68 tasi Rossiya Federatsiyasida, 11 tasi Ukraina SSRda, 9 tasi Qozog'iston SSRda, 5 tasi O'zbekiston SSRda, qolgan iqtisodiy rayonlar har bir respublikaga bittadan to'g'ri kelgan. Uning ta'kidlashicha, mamlakat tarkibidagi respublika, o'lka, avtanom viloyatlar iqtisodiy rivojlanishiga qarab alohida iqtisodiy rayonga yoki rivojlanishi past bo'lishiga qarab bir necha respublika, o'lka, viloyatdan iborat bitta iqtisodiy rayonga birlashtirilgan. Shu tariqa butun mamlakatdagi 15 ta ittifoqdosh respublika 8 ta viloyatga bo'lingan [2].

50-yillarda sovet hukumati tashabbusi bilan O'rta Osiyo respublikalari, xususan, Tojikiston SSR, Turkmaniston SSR, Qirg'iziston SSR, O'zbekiston SSRning ishlab chiqarish salohiyati, tabiiy boyliklari, ishchi kuchi jihatidan boshqa mintaqalaridan ustunligi sababli, bu respublikalarni birlashtirgan holda O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni deb atalgan, ayni paytda mamlakat manfaatlariga yetarli darajada mahsulot bilan ta'minlash imkoniga ega bo'lganligi bois “Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni” deb ham atalgan. O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan O'zbekiston SSR Xalq xo'jaligi Kengashi fondi -R.2384, O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni Xalq xo'jaligi kengashi fondi (Средазсовнархозстрой) - R.2433, O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni Xalq xo'jaligi kengashining rejalashtirish va koordinatsiya qilish Kengashi fondi - R.2303, Toshkent iqtisodiy rayoni Xalq xo'jaligi kengashining energetika va xalq xo'jaligi soveti boshqarmasi fondi - R. 2137 va boshqa fondlarda iqtisodiy rayonlarning sanoat, qishloq xo'jalik hayotiga oid bo'lgan juda ko'plab ma'lumotlar saqlangan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimizning asosiy masalasi Toshkent iqtisodiy rayoni, uning geografik tuzilishi, tabiiy resurslaridir. Toshkent iqtisodiy rayonining iqtisodiy-geografik xususiyatlari yuzasidan Asanov hamda Nabixonovlarning “O'zbekiston SSRning iqtisodiy va sotsial geografiyasi” nomli kitobida shunday keltiriladi: Toshkent iqtisodiy rayoni O'zbekiston SSRning Shimoli-Sharqiy qismida, G'arbiy Tyanshan tog'lari bilan Sirdaryoning o'rta oqimi oralig'ida joylashgan, qadimdan xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirilgan Sirdaryo hamda uning irmoqlari Chirchiq va Ohangaron vodiylarini egallagan. Rayon territoriyasida 3,8 mln kishi

yashaydi (1983 y.) Toshkent iqtisodiy rayonida (Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari) respublikaning sanoat jihatidan eng rivojlangan rayoni bo'lib, bu rayon respublika hududining 9,2 foizini tashkil qilgan. Hududning iqtisodiy geografik o'rni juda qulay bo'lib, bu qulaylik Toshkent shahrining poytaxtligi shuningdek, respublikanigina emas, balki butun O'rta Osiyoning eng yirik sanoat, madaniyat markazi ekanligi bilan bog'liq bo'ldi. Rayon Farq'ona vodiysi, Zarafshon vohasi, Mirzacho'l va Janubiy Qozog'iston (Chimkent viloyati) oralig'ida joylashgan. Shuni alohida takidlash lozimki, magistral temir yo'llar, avtomobil va havo yo'llari tuguni joylashgan Toshkent rayoni faqat qo'shni territoriyalar bilangina emas, balki butun O'rta Osiyoning boshqa iqtisodiy rayonlari bilan aloqa qiladigan asosiy darvozasi hisoblanardi.

O'zbekistonni iqtisodiy rayonlarga bo'linishini o'rgangan K. Bedrinsev O'zbekistonning tabiiy sharoitlarini tahlil qilgan ekan, “O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston ham, SSSRdagi eng janubiy kengliklarda va ochiq dengizlardan yiroqda joylashgan bo'lib, mo'tadil mintaqadan subtropik mintaqaga o'tadigan joylardir. Bu geografik holat O'zbekistonning iqlimiga ham ta'sir qiladi, uning iqlimi kontinental iqlimdir, ya'ni harorat juda ham o'zgaradi, yozda harorat juda baland bo'lib, havoda nam oz, yog'ingarchilik juda kam bo'ladi. O'zbekistonning bir-biridan yuzlab kilometr masofada bo'lgan ayrim rayonlari iqlim jihatidan birmuncha farq qiladi” [3], deb yozadi.

Toshkent hududining tabiiy sharoiti ham boshqa rayonlarnikidan farq qilardi. Yuqorida berilgan ilmiy adabiyotda yozilishicha Toshkent hududida namgarchilik yetarli darajada, suv havzalari, suv omborlari, tog'li hududlarning ko'pligi rayonda sanoatning, qishloq xo'jaligining yuqori su'ratlarda rivojlanishiga turtki bo'lgan. Bo'zsuv, Zax, Qorasuv, Dalvarzin, Margunenkov nomidagi, Katta va Shimoliy Toshkent kabi irrigatsiya kanallari, Chirchiq daryosi, Chorvoq suv ombori, Ohangaron daryosi, Toshkent suv omborlari yangi yerlar ochish, minglab ekin maydonlarini sug'orish uchun xizmat qilgan.

Toshkent iqtisodiy rayoni Shimoliy va Shimoliy Sharqiy qismlarida Chotqol, Qurama, Pskom, Ugom tizmalari joylashgan. Rayonning eng baland cho'qqisi Beshtog' tog'i (4299 m) Pskom tizmasida tog'lar rayoni Shimoldan keladigan sovuq xavo massalaridan ma'lum darajada saqlab turadi, shu sababli tog' vodiylarida iqlim yumshoq bo'lib, tog' oldi rayonlarida 350 400 mm, tog'larda 500 mm gacha yog'in tushadi [4]. Namgarchilikning yuqoriligi lalmikor yerlarning va undan olinadigan hosilning unumdorligini oshirgan.

Toshkent iqtisodiy rayonida mavjud tabiiy resurslar haqida so'z borganda olim Berdinsevnin tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Ko'mir qazib chiqarish (Angren), rangli (Olmaliq, Chirchiq) va qora metallurgiya (Bekobod), mashinasozlik (Toshkent, Chirchiq), kimyo (Toshkent, Olmaliq, Chirchiq), binokorlik materiallari sanoati (Toshkent, Ohangaron, Angren, Chirchiq), yengil va oziq-ovqat sanoati asosiy sohalar hisoblangan. Qishloq xo'jaligi-paxtachilik, kanop etishtirish, bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaligi, pillachilik, go'sht-sut chorvachiligi, shahar atrofiga savbzavot-polizchilik va bahorikor don xo'jaliklari kabi sanoat turlaridan iborat bo'lgan [5]. Ayniqsa, Chirchiq daryosining suvi tarkibida neft mahsulotlari, og'ir metall turlari ham me'yoridan ortiq bo'lgan.

Sovet davri adabiyotlari, xususan, R.H.Abdullaev SSSR xalq xo'jaligida yer osti boyliklarini tahlil qilgan ekan, mamlakatda yuz berayotgan iqtisodiy hodisalar jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan “ob'ektiv” omillar sifatida quyidagilar, ya'ni: “SSSR ekonomikasi o'z territoriyasidagi yer osti boyliklari hisobiga rivojlanayotganligi, mehnat qurollarining ko'pchilik qismi shu yerdan qazib olinayotganligi, sotsialistik xalqaro mehnat taqsimoti tobora kengayib, mamlakat o'zidagi tabiiy

boyliklardan foydalanib mahsulot ishlab chiqaradigan davlat sifatida alohida rol o'ynayotganligi, chunki yer osti boyliklari manbalari yetarli miqdorda ekanligini, buning natijasida turli mamlakatlar o'rtasida yonilg'i, xomashyo, metall va boshqa mahsulotlar bilan savdo-sotiq qilishning ortib borayotganligi"ni [6] ko'rsatib o'tadi.

1962-yil Olmaliqda O'zbekistonda birinchi bor misni qayta ishlash zavodi ishga tushirilib, rangli metallar bilan ishlashning yangicha usullari yaratildi. Bu xususda D.Kim Olmaliq shahridagi tog'-metallurgiya kombinati O'zbekistonning chetga 11 turdagi rangli metallarni eksport qilishi bilan iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi haqida [7] alohida yozadi.

Rivojlangan sanoatiga qaramasdan tabiiy o'sish Toshkent iqtisodiy rayonida respublikada eng past. Buning asosiy sabablari Toshkent iqtisodiy rayonida urbanizatsiya darajasining yuqoriligi, ayollarning respublikaning boshqa oblastlari va rayonlaridagi nisbatan ijtimoiy ishlab chiqarishda aktiv ishtirok etishi, axoli milliy tarkibining xususiyatlari kabilardir. O'zbekiston axoli milliy tarkibida mahalliy millatlar (birinchi navbatda o'zbeklarning) salmog'i yuqori bo'lsa, tug'ilish ko'rsatkichlari ham yukori bo'ladi. Masalan, aholi o'rtasida tug'ilish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari aholisining absolyut ko'pchiligi o'zbeklar bo'lgan Surxandaryo, Xorazm, Qashqadaryo, Namangan oblastlarida eng yuqoridir. Toshkent oblastida esa axolining milliy tarkibi xilma xil. Toshkent oblasti axolisining milliy tarkibida o'zbeklar (39,9%), ruslar (19,9%), tatarlar (8,9%), qozoqlar (63%), koreyslar (3,2%), ukrainlar (2,2%), yahudiylar (2,1%), tojiklar (2,1% ni) tashkil kiladi. Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, rayonda o'zbeklar axolining yarmidan kam ekan.

Tadqiqot mavzuimizga oid bir qancha manba va dabiyoatlarni organish natijasida iqtisodiy rayonlashtirish natijasida O'rta Osiyo respublikalarida – paxtachilik, ipakchilik, qorako'chilik, qishloq xo'jaligi uchun mashinasozlik rivojlanganligi, gidroenergetika va gaz qazib olishga ixtisoslashganligi, O'rta Osiyo mintaqasida O'zbekiston o'zining ikki asosiy xususiyati – iqlimi yer-suv

resurslari, boy yer osti boyliklariga egaligi hamda tug'ilishning yuqoriligi va ishchi kuchining yetariligi bilan ajralib turganligi aniqlandi. Xususan, Toshkent iqtisodiy rayoni asosan sanoat tarmoqlari rivojlangan hudud bo'lganligi, ularning xalq xo'jaligidagi yuqori bo'lsada, lekin ekologik vaziyatga ta'sir etib, inson salomatligiga zarar keltiruvchi chiqindilarni ko'plab atmosfera, gidrosferaga tashlab kelganligi, natijada aholi orasida yuqumli kasalliklar, suyak kasalliklari, onkologik kasalliklar ko'payib borganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston SSRning Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonidagi – geografik o'rni hududni paxtachilik va paxtachilikka xizmat qiladigan sanoati rivojlangan hududlardan biriga aylantirdi. Ayni paytda respublika paxtachilik uchun zarur bo'lgan barcha mashinalar (kultivatorlar, seyalkalar, paxta terish mashinalari, ko'sak teradigan va ko'sak chuviydigan mashinalar, ko'rak terish, paxta dalalari uchun traktorlar va h.), mineral o'g'itlar, paxta tozalash zavodlari uchun uskunalar, to'qimachilik mashinalari ishlab chiqaradigan asosiy va birdan – bir markazga aylandi.

Xulosa. Yer osti boyliklarini qazib olish, uni imkon daraja xalq xo'jaligiga yo'naltirish ham O'zbekistonda faol darajada olib borildi. Bu bilan Toshkent iqtisodiy rayoni ham nafaqat O'zbekiston, balki mamlakat xalq xo'jaligida o'zining o'rniga ega bo'ldi. Toshkent iqtisodiy rayoni yaxshi rivojlangan sanoati, qulay geografik joylashuvi, yaxshi iqlim sharoiti tufayli o'suvchi xalq xo'jaligi, yer osti boyliklarining ko'pligi va yaxshi yo'lga qo'yilgan transport tizimi bilan O'zbekiston hududiga boshqa iqtisodiy rayonlardan ajralib turgan. Umuman olgan Toshkent iqtisodiy rayoni respublika sanoati yalpi mahsulotining 40 foizdan ko'prog'ini, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 23 foizini bergan. 1980-yillarning o'rtalarida respublikadagi mavjud 123 ta shahardan 18 tasi shu viloyatga to'g'ri kelgan [8]. Urbanizatsiya yaxshi rivojlangan. Ammo sanoatning yuqori darajada o'sishi bir tomondan ekologik muammolarning kelib chiqishiga ham sabab bo'ldi. Boshqa tomondan esa mehnat resurslarining rivojlanishi, shaharda aholi bandligi masalalari ijobiy tomonga o'zgardi.

ADABIYOTLAR

1. PeterZwick. Ethnoregional socio-economic fragmentation and soviet budgetary policy, - "Soviet Studies", Universiti of Glasgow press, vol. XXXI, Juli 1979, №3, - p.p. 380-400.; Michael Rywkin. Central Asia and Soviet manpower. – "Probleme of Communism" Washington, Januyari – Februari 1979, vol. XXVIII, №1, pp. 1-13.; Шубин А.В. От «застоя» к реформам. СССР в 1917-1985 гг. – Москва. РОССПЭН, 2000. – с. 768.
2. Костенников В.М. Экономические районы СССР. – Москва. Географгиз, 1958. – С.5.
3. Бедринцев К.Н. СССР Халқ хўжалигида Ўзбекистоннинг тутган ўрни.-Тошкент. Ўзбекистон КП Марказий Комитети хузуридаги "Қизил Ўзбекистон", "Правда влстока" ва "Ўзбекистони Сурх" бирлашган нашриёти, 1953. – 10-бет.
4. Асанов. Г.Р., Набиhoнов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва сотсиал географияси. Т.Ўкитувчи.1984
5. Бедринцев А.К. Ўзбекистон территориал ишлаб чиқариш комплексларини шакллантириш. – Тошкент. ЎзССР Билим жамияти, 1982. – 20-бет.
6. Абдуллаев Р.Х. СССР халқ хўжалиги комплекси ва ер ости бойликлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987.
7. Ким Д. Повышение энергоэффективности производство черновой меди на АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат». Дисс. канд.тех.наук. (PhD). –Ташкент: 2019..
8. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 году. (Стат. ежегодник).
9. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий иқтисодий муносабатлар (70г80гйиллар мисолида).- Тошкент. 1999
10. Костенников В.М. Экономические районы СССР. – Москва. Географгиз, 1958.



UDK: 069(091) (575.111)(043.3)

Nurullo TURSUNOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, DSc
E-mail: nurullo2447603@gmail.com
Fahriiddin YORMATOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, t.f.n
Azamat ABDURAXMONOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti o'qituvchisi

TerDU dotsenti, t.f.d H.Xolmo'minov taqrizi asosida

CURRENT PROBLEMS OF MODERN MUSEOLOGY TODAY

Annotation

In this article, it is impossible to create the necessary conditions for the museums of Uzbekistan to get out of the mold of oldness and enter the path of new development without a thorough analysis of the path traveled by the museums of Uzbekistan from the early days of their establishment to the present day, without drawing the necessary conclusions. Analyzing these problems on the example of museums in Uzbekistan, determining the place of museums in each socio-economic structure and drawing the necessary conclusions by critically evaluating their activities, the information about the theoretical understanding of the development of modern museum work is presented based on archival materials and historical literature.

In the development of today's society, the complexity of the era, the enormous weight of its social problems show the urgency of searching for optimal options for preparing young people for independent life, and increasing the effectiveness of social education, reflected in the article.

Key words: exhibit, item, equipment, exposition, cultural, educational, building, city, historical heritage, monument, audience, local history.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ МУЗЕОЛОГИИ СЕГОДНЯ

Аннотация

В данной статье невозможно создать необходимые условия для выхода музеев Узбекистана из шаблона старины и вступления на путь нового развития без тщательного анализа пути, пройденного музеями Узбекистана с самого начала. дней их создания и по сей день, не сделав необходимых выводов. Анализируя эти проблемы на примере музеев Узбекистана, определяя место музеев в каждой социально-экономической структуре и делая необходимые выводы путем критической оценки их деятельности, представлены сведения о теоретическом осмыслении развития современного музейного дела на основе архивные материалы и историческая литература. В развитии современного общества, сложность эпохи, огромная тяжесть его социальных проблем показывают актуальность поиска оптимальных вариантов подготовки молодежи к самостоятельной жизни, повышения эффективности социального воспитания, что отражено в статье.

Ключевые слова: экспонат, продукт, оборудование, экспозиция, культурно-просветительское, здание, город, историческое наследие, памятник, публика, география.

ZAMONAVIY MUZEYSHUNOSLIKNING BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB MUAMMOLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston muzeylarining tashkil topgan dastlabki davridan bugungi kunga qadar bosib o'tgan yo'lini chuqur tahlil etmasdan, zaruriy xulosalarni chiqarmasdan turib, ularni eskilik qolipidan chiqarib, yangi taraqqiyot yo'liga tushib olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirish mumkin emas. Ushbu muammolarni O'zbekistondagi muzeylar misolida tahlil qilish, muzeylarning har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzimda tutgan o'rnini aniqlash va faoliyatiga tanqidiy baho berish orqali zaruriy xulosalarni olish zamonaviy muzey ishi taraqqiyotini nazariy jihatdan anglashga xizmat qilishi to'g'risidagi ma'lumotlar arxiv materiallari va tarixiy adabiyotlarga asoslangan holda bayon etilgan.

Bugungi jamiyat taraqqiyotida davrning o'ta murakkabligi, uning ijtimoiy muammolarining salmog'i juda kattaligi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlab borishning optimal variantlarini qidirish, ijtimoiy tarbiyaning samaradorligini oshirish dolzarbligini ko'rsatishi kabi masalalar maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: ekspонат, buyum, jihoz, ekspozitsiya, madaniy, ma'rifiy, bino, shahar, tarixiy meros, yodgorlik, tomoshabin, o'lkashunoslik.

Kirish. Dunyo mamlakatlari hozirgi davrda zamonaviy muzeylarni madaniy-tarixiy va tabiiy-ilmiy qadriyatlarini mushohada qilishga mo'ljallangan ijtimoiy axborot institutini o'zida namoyon etadi. Ular muzey ashyolarini axborot vositasida muhofaza qilish, to'plash va tarqatish, jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiluvchi ixtisoslashtirilgan madaniy-ma'rifiy muassasalar hisoblanadi. Muzeylar nafaqat tabiat va

jamiyatning noyob va xilma-xil ashyolari xazinasini, balki muhim ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy markazlari ham hisoblanadi[1].

Mamlakatimizda muzeylarning turlari va yo'nalishlarining soni ortib borgan sari, muzeylar faoliyatini rivojlantirish maqsadida o'lkashunoslik, san'at, adabiyot muzeylari bilan bir qatorda xotira-muzeylari, sohaviy muzeylar ham takomillashib bormoqda. Zero, bu borada

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir... Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avlilyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"[2], deb ta'kidlab o'tgani fikrimizning yaqqol isbotidir. Muzeylar o'sib kelayotgan yosh avlodni ajdodlarning tarixiy an'analariga sadoqat, o'zbek xalqining yuksak maqsadlarini ishonch ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda mazkur vazifalarni bajarilishida muzeylar alohida ahamiyat kasb etmoqda[3].

Muzeylar-tarixning sirli jihatlarini o'zida to'plagan holda turli xalqlarning ilmiy tafakkuri va madaniyatini, qadriyatlarini va ma'naviy qiyofasini tarannum etuvchi ma'rifiy maskan hisoblanadi. Demak, muzeylar turli mamlakatlarni, xalqlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi mustahkam madaniy ko'prikdir. Shuningdek, muzeylar jamiyat a'zolarining ma'naviy va ilmiy dunyoqarashini yanada boyitish, insonlarni o'z vataniga bo'lgan sadoqatini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchi Sh.Kasimovning fikricha, muzeyshunos xodimlarning yangicha tasavvurlariga muvofiq, muzeyning vazifalari faqat hodisa, jarayon, fakt va muzey predmetlari haqida ko'p bilim berishdan iborat emas. Balki, tomoshabinning sezgi-emotsional holatiga ham ta'sir etish, uni tarixiy muhitga olib kirish, uning tasavvurini ishga solish muzeylar faoliyatida madaniy-ilmiy konsepsiyasining asosiy vazifasidir. Muzeysga kelgan odam tarbiyaviy ta'sir obyekti emas, balki teng huquqli suhbatdoshdir, shuning uchun muzeyning auditoriya bilan mulqoti monolog emas, balki dialog shaklida bo'lishi kerakligi ma'lumolari[4] maqolada ilmiy jihatdan tadqiq etildi. Shuningdek, muzey kommunikatsiyasi orqali predmetlarga emotsional javob berish, bilish uchun xohish, axborotni qabul qilish, muzey sharoitida predmetlarni qabul qilish va tushunishni rivojlantirish lozim[4]. Hozirgi vaqtda madaniyat muassasalari, xususan, ijtimoiy tarbiya tizimining ajralmas qismi bo'lmish muzeylarning roli ahamiyatli darajada oshib bormoqda. Muzeylar aholining yuksak madaniyati, ularning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirib borishi hamda intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun ko'nikmalar bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'lib, o'ziga xos informatsion muhit yaratmoqda hamda uni uyg'unlashtirmoqda. Bolalarga bizning va ajdodlarimizning o'zaro bog'lovchi turli xildagi aloqalarni his etish va qabul qilishda yordam berish lozim. Shundagina yo'q bo'lib ketgan madaniyat, an'analar va ularning ahamiyati bolalarda alohida qadr-qimmatga ega bo'ladi. Muzey xazinasi ularga bebaho va noyob tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi to'g'risidagi qarashlar maqolada o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Muzeylarning ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va me'moriy muassasa sifatida zamonaviylashib borishi, bu kolleksiyalar sonining ortib borishi, ekspozitsiyalarni konservatsiyalash, ularni muhofaza qilish, ta'mirlash, saqlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish singari faoliyat turlari darjasining aniqlanganligi bilan bog'liq fanlararo yondashuv, tajriba-sinov, so'rovnoma, muzey materiallari va me'moriy loyihalarni tahlil qilish, kuzatuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Fanlararo yondashuv usulida mamlakatimizdagi tarixiy muzeylarda saqlanayotgan eng boy jamg'arma to'plamlari arxeologiya, etnografiya, numizmatika, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi, harbiy

tarix, geraldika, epigrafika kabi fanlardagi tadqiqotlar uchun yangi tarixiy ma'lumotlar olishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Dunyodagi biron-bir xalqning o'tmish tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganishda va targ'ib etishda hamda kelgusi avlodlarga yetkazishda muzeylar muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda[5]. Tarixdan yaxshi ma'lumki, XIX-XX asrlarda muzeylar nafaqat ilmiy, balki ma'rifiy institut sifatida namoyon bo'lib, maorif sohasidagi vazifalarni hal etishda ham o'z hissasini qo'sha boshlagan. Shu tariqa muzeyning ma'naviy muassasa sifatidagi modeli shakllandi. Bu pozitsiya madaniy-ma'rifiy ish yoki maktabdan tashqari ta'lim atamalarini paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Bunday konsepsiyani muzeylarda qo'llanilishi, muzey kolleksiyalarini faqatgina muzey mutaxassisi foydalanishi mumkin bo'lgan fondlarga va keng omma uchun namoyishi mumkin bo'lgan kolleksiyalarga ajratdi hamda birinchi marta o'quvchilar uchun ekskursiyalarga olib borish tashkil etildi. Muzey xodimlari orasidan esa ekskursovod lavozimi tashkil etildi[4].

Muzeylarning ijtimoiy ahamiyatini aks ettiruvchi tarixdan shakllanib kelgan ijtimoiy-madaniy vazifalarining ko'p qirrali ekanligi va turli nuqtai nazardan o'rganilishi natijasida, uning oldida quyidagicha maqsadlar turadi: avvalo, muzey ahyolari va muzey kolleksiyalarini hujjatlashtirish, asoslash, ya'ni, jamiyat taraqqiyotining madaniyati yoki tabiatini aks ettiruvchi dalillar bilan tasdiqlash; jamiyat a'zolarining vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, ularning madaniy, ma'naviy va ruhiy hordiq chiqarishiga bo'lgan talabini qondirish vazifasi ham shular jumlasiga kiradi. Bu vazifaning muhimligi shundan iboratki, jamiyat a'zolarining muzeysga tashrif buyurishlari ortida ham axborot olish, ham bilim olish, ham tarbiyaviy ahamiyatidan bahramand bo'lish istagi yotadi[6].

Muhtaram, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan yoshlar orasida kitobxonlikni kengroq targ'ib etish borasidagi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. "Kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi" [7]. Shu sababdan, muzeylar faoliyatini kitobxonlik targ'ibotiga qaratish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shundaki, yoshlarni kitoblar orqali xalqning boy tarixiy va ma'naviy-madaniy merosi bilan tanishtirish, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash mumkin.

2017-yil 31-avgust-Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning muzeysga tashrifi chog'ida bildirgan taklif va mulohazalari asosida 2017-yil 22-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeysi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 936-conli qarori qabul qilindi va muzey O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o'tkazilib, faoliyati yanada kengaytirildi va takomillashtirildi[8]. O'zbekiston madaniyati va san'ati ko'rgazmasi binosida adabiy markaz tashkil etildi. O'zbekiston badiiy akademiyasi tomonidan vatanimiz adabiyotining namoyondalari va O'zbekiston qahramonlari: olim va jamoat arbobi O.Sharofiddinov, xalq shoiri Erkin Vohidov, shoir Abdulla Oripov va Muhammad Yusuf xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuasini barpo etish bo'yicha ijodiy tanlov e'lon qilindi[9]. Shu bilan birga Hamid Olimjon, G'ofur G'ulom, Zulfiyaning haykallari adiblar xiyoboniga ko'chirib keltirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev

yodgorlik majmualarini yaratish konsepsiyalarini ishlab chiqishga alohida yondashish lozimligini qayd etib o'tdi[8].

2007 yilda Xalqaro Muzeylar Kengashining qabul qilingan nizomida: "Muзей-bu inson va atrof-muhitning moddiy hamda nomoddiy dalillarini ta'lim olish va ma'naviy hordiq chiqarish maqsadlarida yig'ish, saqlash, muhofaza qilish, tadqiqot olib borish, keng targ'ibot qilish bilan shug'ullanuvchi, aholi uchun doim ochiq bo'lgan, jamiyat va uning taraqqiyoti uchun doimiy asosda faoliyat yurituvchi notijorat muassasa" sifatida ta'riflanishida ham muzeylarning ta'lim yo'nalishidagi ahamiyatini birinchi o'ringa qo'yilishi bejiz emas[6].

Muzeylar ma'naviy va ma'rifiy dargoh tarzida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Shuning uchun ham muzeylarning eksponatlar zahirasi doimo to'ldirib borish, yig'ilgan muzey kolleksiyalarini kelajak avlodlarga beshkast holatda yetkazish, ularni asrash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etishini unutmashimiz lozim. Har bir ekspozitsiya o'zining tarixiy ahamiyati va judayam boy tarixiy yodgorliklarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi[5]. O'zbekistondagi muzeylarning har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzimda tutgan o'rnini aniqlash va faoliyatiga tanqidiy baho berish orqali zaruriy xulosalarni olish zamonaviy muzey ishi taraqqiyotini nazariy jihatdan anglashga xizmat qiladi[10].

2021-yil 15-iyun kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan video selektor yig'ilishida soha ravnaqi bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Mazkur yig'ilishda mutasaddilarga muzeylar faoliyatini yaxshilash, ko'rgazmalarini kengaytirish va turistlar uchun sharoitlarni yaratish, bu soxa kelajagining barqaror rivojlanishini davlat nazoratida ekanligini bildiradi[11]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktabrda qabul qilingan "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohasida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-son qarori [12] muzeylar faoliyati uchun zarur mutaxassis kadrlarni tayyorlash siyosatining muhim huquqiy hujjatlaridan biri bo'ldi.

Hujjatga muvofiq "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti etib qayta nomlanib, ushbu universitet SHHTga a'zo davlatlarning Turizm, madaniy merosni boshqarish va muzeyshunoslik sohasida kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi hamda ushbu sohalarni ilmiy va innovatsion tadqiq etish bo'yicha ilmiy muassasaga aylantirildi. Qaror bilan 2022/2023-o'quv yilidan boshlab Shahrisabz, Marg'ilon va Xiva Turizm va servis kollejlari negizida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan Turizm va madaniy meros texnikumlari tashkil etiladigan bo'ldi[12].

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, muzeylarni rivojlantirish ishlari jamiyat tafakkurida madaniyat tarixiga oid dunyoqarashni yuksaltirishda muzeylarning ahamiyati yuqori ekanligini aholiga, ayniqsa yosh avlodga keng tushuntirilmasa davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi pasayib ketishi mumkin. Yoshlarni muzeylarda saqlanayotgan turli eksponatlarni asrashga, tarixiy shaxslar va buyuk ajdodlar xotirasiga nisbatan hurmat va mehr bilan qarashga o'rgatish lozim. O'zbekistonda muzeylar faoliyatining bosqichma-bosqich innovatsion usul va vositalar yordamida kuchaytirilishi natijasida barcha yo'nalishdagi muzeylarning aholiga xizmat ko'rsatish sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

Muzeylar faoliyatini takomillashtirishda ma'naviy va ijtimoiy tarbiyaviy ahamiyati samaradorligini oshirishni ta'minlash maqsadida zamonaviy texnologiyalar, xususan, "smart" texnologiyalarni joriy etish, veb-saytlarini, virtuallashtirish jarayonlarini jadallashtirish, innovatsion boshqaruv va marketing asoslarini rivojlantirish, mutaxassis kadrlarni malaka oshirishlarini ta'minlash, eksponatlarni raqamlashtirib, yagona elektron katalogni yaratish ishlarini tezroq tugatish orqali muzeylar faoliyatini istiqbolini belgilab berishi ko'rsatib berildi. Muzeylarga chet el sarmoyalarini keng jalb qilgan holda xalqaro standartlar negizida elektron axborot majmuini yaratish jarayonlarini yanada jadallashtirish zarurati tadqiqotning muhim muammolaridan biri sifatida ko'rsatilib, muzeylarda bosqichma-bosqich tarzda ko'rgazmali muzey materiallarini namoyish etishning usullari keng tadbir etilishi soha rivojini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Жабборов Исо, Дилором Раҳимова. Замонавий музейшуносликнинг долзарб муаммолари // Moziydan sado, 1 (17). 2013.-Б.2.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Toshkent: Yoshlar, 2019. – B. 144.
3. Barkamol avlodni voyaga etkazishda muzeylarning o'rnini va ahamiyati. // <https://www.parliament.gov.uz/uz/events/committee/14657/>. (murojaat sanasi: 01.09.2021).
4. Касимова Ш. Музей экспозицияларида турли ёшдаги ташриф буюрувчилар аудиториясининг психологик-педагогик ихтисослаштириш жараёнлари. "Қамолиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти ахборотнома" журналі. 2021 йил, (5) 1-сон. – Б. 8,9,10,11.
5. Sayfullaev B. Muzeylar tarixning sirli hilqatlarini o'zida mujassam etgan ko'zgu // <https://www.xs.uz/uzkr/post/muzejar-tarikhning-sirli-khilqatlarini-ozida-muzhassam-etgan-kozgu>. (murojaat sanasi: 01.09.2021).
6. Исмаилова Ж., Нишанова К., Мухамедова М. Музей ва жамият (дарслик). – Тошкент: Чинор, 2015. – Б. 18-20.
7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 47.
8. Адиллар хиббони. – Тошкент: Адабиёт, 2018.-Б.9.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i hududida adiblar hiyobonini barpo etish to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/5465596>. (murojaat sanasi: 14.09.2021) .
10. Yunusov M. O'zbekistonda ilk bor muzeylarda ilmiy kengash ochilmoqda // <https://www.zarnews.uz/post/ozbekistonda-ilk-bor-muzeylarda-ilmiy-kengash-ochilmoqda>. (murojaat sanasi: 01.09.2021).
11. Усмонова Н. Озарбойжон миллий санъат музейи билан ҳамкорлик ўрнатилди // https://www.uza.uz/uz/posts/ozarbayzhon-milliy-sanat-muzeyi-bilan-hamkorlik-ornatildi_329972.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021-yil 30-oktyabrda qabul qilingan "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohasida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/5701949>. (murojaat sanasi: 01.09.2021).



UDK:908

Nilufar ESANOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail:n_esanova@gmail.com

NamMQI v.b. dotsenti, PhD B.Is’haqov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTON PAXTA TOZALASH SANOATIDAGI O‘ZGARISHLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIK

Аннотация

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yengil sanoat sohasidagi o‘zgarishlar mavzusi yoritilgan. Mustaqillikdan keyingi yillarda yengil sanoatda muhim tarkibiy o‘zgarishlar, asosiy ko‘rsatgichlar va bu boradagi xalqaro hamkorlik masalalari maqolada tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yengil sanoat, paxta tozalash zavodlari, to‘qimachilik, trikotaj, shoyi to‘qish, tikuvchilik, ko‘n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans.

ИЗМЕНЕНИЯ В ХЛОПКОЧИСТИТЕЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА И СОТРУДНИЧЕСТВО С ЗАРУБЕЖНЫМИ СТРАНАМИ

Аннотация

В данной статье освещена тема развития легкой промышленности в Узбекистане в годы независимости. В статье проанализированы важные структурные изменения в легкой промышленности за годы после обретения независимости, ключевые показатели и вопросы международного сотрудничества в этой области.

Ключевые слова: легкая промышленность, хлопкоочистительные заводы, текстильная, трикотажная, шелкоткацкая, швейная, коженно-обувная, ковроткацкая, фарфорово-фаянсовая.

CHANGES IN THE COTTON CLEANING INDUSTRY OF UZBEKISTAN AND COOPERATION WITH FOREIGN COUNTRIES

Annotation

This article covers the topic of changes in the field of light industry in Uzbekistan during the years of independence. Important structural changes in light industry in the years after independence, key indicators and issues of international cooperation in this regard are analyzed in the article.

Key words: light industry, cotton ginning plants, textiles, tri-cottage, silk weaving, tailoring, Coon-shoes, carpeting, porcelain-faience.

Kirish. O‘zbekistonda tolasi pishiq, yuksak sifatli, sanoatbop paxta yetishtiriladi. Shu bois to‘qimachilik sanoati rivojlangan barcha davlatlar mamlakatingiz bilan faol hamkorlik qilishga intiladi.

O‘zbekistonda paxta yetishtirish, qayta ishlash va uni eksport qilish uchun zamonaviy infratuzilma yaratilgan. Mamlakatimizda bugungi kunda paxta sanoatini rivojlantirish borasida yuksak natijalarga erishmoqda. O‘zbekistonda iste‘molchilarning talablariga javob beradigan paxtaning ko‘plab navlari mavjud. Tolani sotib olish uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratilgan.

Mamlakatingizda seleksiya navlarini tanlash va hududlarga moslab ekish, paxtani tozalash va qayta ishlash, tolni tasniflash bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan tizim O‘zbekiston paxtasining sifatini yanada oshirmoqda. Paxta tolasining xalqaro andozalar asosida sertifikatlanishi ham xaridorlar uchun muhim kafolat hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston bilan paxta biznesida o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishga bo‘lgan qiziqish yil sayin ortib bormoqda.

Chet ellik ekspertlarning ta‘kidlashicha, O‘zbekiston paxta sanoatida amalga oshirilgan tarkibiy tub o‘zgarishlar yurtimizda yetishtirilgan paxta tolasining jahon bozoridagi nufuzi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston yengil sanoati ko‘p tarmoqli industrial kompleks bo‘lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlari, to‘qimachilik, trikotaj,

shoyi to‘qish, tikuvchilik, ko‘n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohaslarida 150 ga yaqin korxonalar mavjud. Ularning asosiy qismi — to‘qimachilik, tikuvchilik, trikotaj va chinnisozlik korxonalari «O‘zbekengilsanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi (2002), pillakashlik va ipakchilik korxonalari «O‘zbek ipagi» uyushmasi (1998), charm va poyabzal korxonalari «O‘zbekcharm-poyabzali» uyushmasi (2000) tarkibiga kiradi. Respublika sanoatida band bo‘lgan xodimlarning deyarli uchdan bir qismi yengil sanoat tarmog‘iga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston sanoat mahsuloti umumiy hajmida yengil sanoat salmog‘i 16,9% ni tashkil etadi (2005; 1995-yilda 19%; 2000-yilda 20,1%). Xalq iste‘moli tovarlari ishlab chiqarish hajmining 50% respublika yengil sanoati hissasiga to‘g‘ri keladi. Faqat 2000 - 2004-yillar mobaynida tarmoqda 67,5 mingdan ortiq ish o‘rinlari tashkil etildi. 2000 - 2004-yillarda «O‘zbekengilsanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi korxonalarga 5 mlrd. 180 mln. AQSH dollaridan ortiq miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb etildi. Tarmoqda mahsulotlar eksporti 2004-yili 2000-yilga qaraganda 2,3-marta ko‘paydi (240 mln. AQSH dollari, 2004). Respublikada yetishtirilgan paxta tolasini qayta ishlash hajmi 255 ming t dan ortdi (2004; 2000-yilda 164,9 ming t)[1].

Respublika yengil sanoati tarmoqlarida ip gazlama, jun gazlama, shoyi gazlama, trikotaj mahsulotlari, paypoqlar, poyabzal, gilam va gilam mahsulotlari, chinni-fayans

buyumlari va boshqa ishlab chiqariladi. Respublika yengil sanoatida ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar ko'rsatkichlari ortib bordi.

Paxta tozalash sanoati yengil sanoat tarmoqlari orasida yetakchi o'rinda turdi, ip yigiruv, to'qimachilik, yog'-moy, kimyo sanoati tarmoqlariga xom ashyo yetkazib berdi. Paxta tolasi 40 ga yaqin xorijiy mamlakatlarga, jumladan Xitoy, Buyuk Britaniya, Belgiya, Janubiy Koreya, Shveysariya, AQSH, Turkiya va boshqa mamlakatlarga eksport qilindi. O'zbekiston jahonda paxta yetishtirish bo'yicha 46 o'rinni, paxta tolasi eksporta bo'yicha 2-o'rinni (AQSH dan keyin) egalladi.

Respublikadagi paxta tozalash sanoati yagona boshqaruvda ishlaydigan paxta tayyorlash maskanlari, quritish-tozalash sexlari, transport xo'jaliklari, paxta tozalash zavodlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasidan iborat.

2005-yilda tarmoqda 128 paxta tozalash zavodi, 464 paxta tayyorlov maskani mavjud edi. Eng yirik paxta tozalash zavodlari: Qorako'l, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Qo'rg'ontepa va boshqa joylarda joylashgan (yillik quvvati 50-60 ming t va undan ortiq paxtani qayta ishlashga mo'ljallangan) edi. Tolasi ajratib olingan texnik chigit yog'-moy kombinatlarida qayta ishlandi. Tarmoq korxonalarida yiliga qariyb 120-130 ming t ortiq chigit tayyorlandi[2].

Keyingi yillarda respublikada don mustaqilligiga erishish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida paxta ekiladigan yer maydonlari keskin qisqartirilishi munosabati bilan paxta xom ashyosi va undan olinadigan mahsulotlarning kamayishi kuzatildi. Shunga qaramasdan soha mutaxassislarining sa'y-harakatlari evaziga tola chiqishini 1990-yil 30,7% dan 2004-yil 32,7% gacha, yuqori sanoat navli mahsulot hajmini 35% dan 70% gacha ko'tarishga erishildi.

Paxta tozalash sanoatida yangi mikroprotessor texnikasi va axborot-kommunikatsiya tizimlariga asoslangan avtomatlashtirilgan texnika, texnologiyalar jadal sur'atlarda joriy etildi. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyasini o'rganish va joriy etish, tarmoq korxonalarida paxta tolasi bo'yicha jahon standartlariga o'tish uchun AQSH, Shveysariya mamlakatlaridagi firmalarda ishlab chiqarilgan uskunalar va texnologiyani qo'llash sohasida xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Respublika mustaqillikka erishganidan keyin Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa xorijiy davlatlar firmalari bilan hamkorlikda Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'istonda paxtani qayta ishlashdan tayyor to'qimachilik mahsuloti ishlab chiqarishga qadar jarayonlar qamrab olingan majmualar qurilishi boshlandi.

2003-yildan boshlab paxta tolasi eksportiga xizmat ko'rsatadigan mintaqaviy terminallar qurildi va ishga tushirildi. Keyingi yillarda 13 ta yangi paxta tozalash zavodlari foydalanishga topshirildi, 51 ta paxta zavodi rekonstruksiya qilindi. 30 dan ortiq urug'lik chigit tayyorlaydigan ixtisoslashtirilgan paxta zavodlari eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi.

Paxta tozalash sanoati bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari 1990-yilgacha Toshkent shaharda joylashgan Paxta sellulozasi kimyosi va texnologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, paxta tozalash sanoati Markaziy ilmiy-tadqiqot institutida olib borildi. «Paxta sanoati» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, 1992-yil uning negizida Paxta tozalash ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi («Paxta tozalash IICHB») aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi.

1992-yil 7-noyabrda Respublika Prezidenti farmoni bilan paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi «Uzdavpaxtasanoatsotish» davlat-aksiyadorlik uyushmasi tashkil etildi. Uning tarkibiga 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi paxta tozalash

sanoati birlashmalari, «Toshkent kanop sanoati» birlashmasi, Respublika ilmiy markazi, paxta tolasini standartlash va sertifikatlash «Sifat» birlashmasi kirdi. 2001-yil 12-iyunda «O'zdavpaxtasanoatsotish» negizida «O'zpxatasanoat» aksiyadorlik uyushmasi tuzildi. Uyushma tarkibida 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston hududiy paxta tozalash sanoati birlashmalari va «Paxta tozalash IICHB» aksiyadorlik jamiyati bor edi.

Tahlil va natijalar. Respublika paxta tozalash sanoati tizimidagi korxonalar to'liq aksiyalashtirildi. Respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolasining anchagina qismi (85-90%) eksportga chiqarildi.

1993 yildan O'zbekiston jahondagi Xalqaro paxta tolasi savdosi birjaralaridan eng yirik Liverpool (Liverpool Sotton LTD) paxta birjasi (Angliya) bilan hamkorlik qildi. O'zbekiston eksporti umumiy hajmida paxta tolasi eksporti 19,1% ni tashkil qildi (2005)[3].

O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri jahon bozorida raqobatbardosh ip gazlama ishlab chiqarishni ko'paytirishdan iborat. 1995-2005-yillarda O'zbekiston to'qimachilik sanoatida Janubiy Koreyaning «Kabul tekstiles». Turkiyaning «Tipash», «Bursel». Yaponiyaning «Marubeni», Shveysariyaning «Vima-teks» va boshqa kompaniya va firmalari ishtirokida turli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar ishga tushirildi. Bu korxonalar o'z mahsulotlarining asosiy qismini eksportga chiqardi.

1995-yildan boshlab tarmoqqa chet el investitsiyalarini jalb etish, korxonalarini eng ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiyalash, chet ellik sheriklar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish yangi bosqichga ko'tarildi, shu jumladan Germaniya, Yaponiya, Turkiya, AQSH, Koreya Respublikasi bilan yirik quvvatli ip yigiruv-to'quv qo'shma korxonalari ishga tushirildi. Ilgari O'zbekistonda ishlab chiqariladigan paxta tolasining faqat 10% respublika to'qimachilik sanoatida foydalanilgan. 2004-yilda sanoat korxonalarida 255 ming t tola qayta ishlandi (respublika bo'yicha jami ishlab chiqarilgan tolaning 26,2%). Tarmoqda 34 ta aksiyadorlik jamiyati, 11 mas'uliyati cheklangan jamiyat, 28 ta qo'shma korxonasi, 1 xususiy va 1 davlat korxonalari faoliyat ko'rsatdi (2005).

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning 2005-2008-yillarga mo'ljallangan hukumat dasturiga ko'ra shu davr davomida umumiy qiymati 1,2 mlrd. AQSH dollariga teng 94 ta loyiha amalga oshirilishi, 40 ta yangi to'qimachilik korxonasi qurilishi, 46 mingdan ortiq ish o'rinlarini tashkil etish, respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolasining 50% ni respublikaning o'zida qayta ishlashga erishish belgilangan edi.

Trikotaj sanoati respublikada 90-yillar boshidan tarmoqda korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish keng miqyosda amalga oshirildi, mulkchilik shakllari o'zgartirildi. Tarmoqda 11 aksiyadorlik jamiyati, 14 qo'shma korxonasi, 4 xususiy korxonasi faoliyat ko'rsatadi. Eng yirik korxonalar: «Bofanda», «Gurlan», «Malika», «Namangantrikotaj» aksiyadorlik jamiyatlari, «Oqsaroyto'qimachi», «Chinozto'qimachi», «Sag'bonteks», «Shovoteks», «Yadem tekstil», «Osioy tekstil», «Bursel - Toshkent tekstil» qo'shma korxonalari.

O'zbekistonda tikuvchilik 1989-91 yillarda Toshkent «Qizil tong», Samarqand «8-mart» tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmalarida Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Yaponiya, Italiya firmalari ishtirokida shu firma-larning kompleks mexanizatsiyalashgan liniyalari o'rnatildi. 1994-yildan tarmoqda keng xususiyashtirish o'tkazildi, daat korxonalari negizila aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy tikuvchilik korxonalari, yakka buyurtma

asosida kiyim-kechak tikadigan yuzlab atelyelar. chet el investitsiyalari ishtirokida yangi tikuvchilik qo'shma korxonalarini ochildi. Tarmoqdagi yirik korxonalar «O'zbekengilsanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradi. Tarmoqdagi eng yirik korxonalar: «8-mart, nomli, «Modalar uyi». «G'uncha», «Lola», «Mushtariy», «Feruz Xorazm», «Xiva», «Yulduz» aksiyadorlik jamiyatlari, «Emteks», «Atlasmen» (1999) qo'shma korxonalarini va boshqalar mavjud edi[4].

Muhokama. Tikuvchilik korxonalarida kompleks mexanizatsiyalashgan liniya va potoklar joriy etildi. Korxonalarda yangi texnologiyalar va yangi materiallar o'zlashtirilmoqda. Jahon standartlari talablariga javob beradigan kiyim-kechak, milliy buyumlar chet ellarga eksport qilinadi. Respublikada tikuvchilik mahsulotlari, ayniqsa milliy buyumlar va kiyim-kechak mahalliy sanoat korxonalarida ham ishlab chiqarildi.

2005-yilda respublika trikotaj sanoati korxonalarida 32154 ming dona trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-noyabrda «O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi. Mazkur hujjatda 2015-yilda Qashqadaryo viloyatida amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlariga 3 trillion 939 milliard so'mdan ortiq mablag' sarflanishi belgilandi. Investitsiya dasturidan Qarshi tumanida tekstil korxonasi bunyod etish loyihasi ham o'rin oldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 31-oktabrdagi «Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumanida zamonaviy to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida zamonaviy, yuqori texnologiyali to'qimachilik ishlab

chiqarishini tashkil etish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida hayotga tatbiq etilayotgan mazkur loyiha uchun jami 92 million, 2015-yilning o'zida esa 51 million dollarlik bunyodkorlik ishlari bajarilishi ko'zda tutildi.

2016-yilning oxiriga qadar foydalanishga topshirilishi mo'ljallanayotgan mazkur korxonada ishlab chiqariladigan ip kalava va aralash gazlamaning 80 foizini eksportga yo'naltirish, ip gazlama va aralash gazlama ishlab chiqarishini tashkil etish yo'li bilan 2017-2018-yillarda loyihani istiqbolli rivojlantirish rejalashtirildi. Shuningdek, «Kitob ip-yigiruv» aksiyadorlik jamiyati negizida ham kalava ip ishlab chiqarish tashkil etish va uning quvvati yiliga 2,5 ming tonnaga teng bo'lishi rejalashtirildi. Qolaversa, dasturda poli-propilen flakonlardan infuzion eritmalar ishlab chiqarish, tibbiyotda qo'llaniladigan vata va marli, gips uchun bint hamda boshqa tibbiy anjomlar ishlab chiqarishni tashkil etish ham ko'zda tutildi. Shu va boshqa yirik loyihalar uchun joriy yilda qariyb 1 milliard 125 million AQSH dollari miqdorida mablag' o'zlashtiri rejalashtirildi[5].

Xulosa. Xullas, mustaqillik yillarida O'zbekistonning barcha viloyatlarida yengil sanoatni jahon andazalari darajasiga chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chetga eksport qilish tadbirlari jadal olib borildi va katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Xorijlik hamkorlar bilan birgalikda qo'shma korxonalar tashkil etilib, jahon bozoriga chiqarildi. O'zbekiston ishbilarmonlari jahonning Angliya, Germaniya, Italiya, Shvetsiya, Yaponiya, Hindiston, Singapur kabi rivojlangan davlatlari bilan hamkorlikda tuzilgan qo'shma korxonalar faoliyat olib bordi.

ADABIYOTLAR

1. Xudoyberganov M., Xorazm paxta tozalash sanoati tarixi, T., 2004. B. 87.
2. Mannanov A., Turap o v H., O'zbekiston paxta tozalash sanoati mustaqillikning o'n yilida, -T., 2001.
3. Mannanov A., Turap o v H., O'zbekiston paxta tozalash sanoati mustaqillikning o'n yilida, T., 2001; B.68.
4. Alimova X., Ipak chiqindisiz texnologiya. -T., 1999; B.96.
5. Nazarov G., Xalilov X., Azimov A., Xanova I., Xalqaro iqtisodiy integratsiya. -T.,2010, -B.194-198.